

Uch pardali fojia
Ishtirok Etuvchilar
Oqyigit - 17 yoshda.
Zubarjad - 17 yoshda.
Tangabeka - 50-52 yoshda.
Shafaq - 21 yoshda.
Devona - 30 yoshda.
Darvesh - 55 yoshda.
Rizqul - 60 yoshda.
Eshmirza - 11 yoshda.
Yolchiqul - 30 yoshlarda.
Birinchi oqsoqol
Ikkinchi oqsoqol
Uchinchi oqsoqol
Chopar
Erkaklar va ayollar.

Birinchi Parda

Yoz. Cho'l. O'tovlar tizilib ketgan. Tangabeka o'tovining yonida. O'choqqa katta qozon osilgan. U yer-bu yerda paloslar, gilam va kigizlar osib quritilmoqda. Aftidan bu yaylovga yaqinda ko'chib kelishgan. Shafaq qozon boshida uymalashib yuribdi. O'tovdan Tangabeka chiqadi. Qo'lida qamchi, qayoqqadir otlangan.
Tangabeka. Yolchiqul kelmadimi?
Shafaq. Yo'q, ko'rinmadi.
Tangabeka. U lalayganing og'zidan so'zi chiqquncha, burgut tuxum ochib, uchirma qiladi. Kelib-kelib shuni yuboribman-a...
Shafaq. Qayoqqa shohsin, onajon? Qo'rada moli ma'rab, uyda bolasi yig'lab qolyaptimi? Kishi shodlik kutib turgan bo'lsa shoshadi-da.
Tangabeka. Nima balo, hammang o'sha Yolchiqulning yonini olasanlar!
Shafaq. Bechoraga achinaman. Yolg'izgina boshiga ne savdolar tushmadi sho'rlikning.
Tangabeka. Bandalarga qismatni biz ulashmaymiz, kelin, hammasi xudodan! Peshonasiga nima yozilgan bo'lsa, o'shani ko'radi.
Tayoqot qilib mingan Eshmirza qo'shiq aytib kiradi.
Eshmirza.

Otam olib berdi ot,
Egarlatib chop, dedi,
Xotin olib beraman,
Quchoqlashib yot, dedi.
Chux qamish oyoq arg'umog'im, chuh!..

Tangabeka. Jim, ey, tiling kesilmagur! Bunaqa beadab ashulani qayoqdan o'rganding, tentak. Qamchim qani, bir ta'ziringni berib qo'yay!
Eshmirza. Yo'q, oyi, bu kuyovlar aytadigan qo'shiq.
Tangabeka. Qamchi bilan achitib kuyovligingni ko'rsatib qo'ymay! Yo'qol ko'zimdan. (Shafaqqa.) Shu kunlarda ko'nglim shunday g'ashki, kelin, ichimga chiroq yoqsa yorimaydi. Urushga ketganlardan dom-darak yo'q. Chopar kelganiga ham bir yildan oshdi.
Shafaq. Men-chi? Kunduz shamollardan so'rayman, tunda osmonni tutgan yulduzlarga javdirab, Yo'lmirzamni o'ylayman, so'rayman. Qiblagga qarab tiz cho'kib, Yo'lmirzamni o'z panohingda saqlagin, deb iltijo qilaman. Saharlar qonli yoshlar to'kib, oq tilaklar tilayman parvardigorimdan.
Tangabeka. Ko'z yoshlaring tuproqqa singsa ham tilaklaring yerda qolmaydi, kelin. Inshoollo, farishtalarning ominiga tushsa ajab emas.
Shafaq. Aytganing kelsin, ilohim!
Eshmirza. Oyi. Devona osmondagi farishtalarni ko'rganmish. Xuddi irib qolgan sutdagi qurtlarday, g'uj-g'uj g'ivirlab yotganmish. Farishta degani qanaqa bo'ladi, oyi?
Tangabeka. Hali ham shu yerdamisan, oyoq ostida o'ralashmay, bor, o'yna! (Qamchisini o'qtalib qo'yadi.)
Eshmirza. Bular Devona bilgan narsani ham bilishmaydi-ya. (Ketadi.)
Tangabeka. Eshmirza, bor, yilqichi Ko'charboyga ayt, ko'k do'nanni tutib egarlasin.
Eshmirza (uzoqdan). Xo'p, aytaman.
Tangabeka. Men cho'ponlarning oldiga borib kelay... Voy, xudoyim, ko'nglim shunday g'ashki, nima bo'larini bilmayman.
Shafaq. Uch yil! Uch yildan beri ko'zlarim yo'lda intizor! Mushtoqlikdan jigar-bag'rim qon bo'ldi. O'n to'qqiz bahorimda Yo'lmirzamsiz so'lib qoldim, xuddi kechki shafaqdek so'nib boryapman, onajon!
Tangabeka. Bo'yingda ham bo'la qolmagan ekan. Aqalli farzand bilan yupanarding, ovunchoq bo'lardi.
Shafaq. Ha, nasib bo'lmadi.
Tangabeka. Shoyad, tilaklarimiz ijobat bo'lib, Oq podsho urushni to'xtatishga farmon bersa-yu, biznikilar ham el-yurt qatori qaytib kelishsa!
Shafaq. Koshki edi o'sha kunlarga yetishsak.
Tangabeka. Yolchiqul qalinni bir yoqlik qilib kelsa, oqsoqollarni chaqiraman. Bor, kelin, qora o'tovdan xabar ol-chi, qimizni pishitishdimikin. Molni o'zim so'ydiraman.
Shafaq. Xo'p, oyi. (Keta boshlaydi.)
Tangabeka. Oqyigit qayoqqa uloqdi?

Shafaq. Zubarjad kelgan edi, tog' tomonga ot choptirib ketishdi.

Tangabeka. O'n yettiga kirishdi-yu, hali ham bolalıkları qolmagan!

Shafaq. To'ylarigacha o'ynab olishsin, daladagi toychoqlarday yayrashsin. Zubarjad dunyoda monandi yo'q qiz, bamisoli malika!

Oqyigit bo'lsa, husnda Yusuf payg'ambardan o'tadi. Yana shoirligini aytmaisanmi!

Tangabeka. Qo'y, kelin, ummatni payg'ambarga o'xshatma, gunoh bo'ladi.

Uzoqdan ovoz. Boyvuchcha, hoy boyvuchcha, ko'k do'nan dalaga qochib ketibdi!

Tangabeka. Bir kami shu edi! (Ketmoqchi bo'ladi.)

Umaloq oshib Devona kirib keladi.

Devona. Tangabeka boyvuchcha opa, Tangabeka boyvuchcha opa, bir qiziq narsa ko'rdim, aytib beraymi? (Xaxolab kuladi.)

Tangabeka. Ha, ayt. Devona, ayta qol, qiziq narsa bo'lsa.

Devona (sakrab o'rnidan turadi). Taqilgan qoya cho'qqisida bir ona burgut to'rtta palaponini o'ldirdi. Oldin ko'zlarini cho'qib o'ydi, keyin qanoti bilan uyadan surib chiqardi. Palaponlar mana bunday yumalab-yumalab (qilib ko'rsatadi) jarga tushib ketdi...

Shunday tomoshadan qolding, boyvuchcha opa. (Xaxolab kuladi, so'ng birdan ma'yus.) Ona burgut nega shunday qildi ekan-a?

Tangabeka. Senga shunday ko'ringandir. Devona, burgutning bolasi atigi bitta yoki ikkita bo'ladi.

Devona. Uniki to'rtta edi, boyvuchcha. Ikkitasini boshqa uyadan olgan ekan-da?

Tangabeka. Kelin, bor, ayt, Devonaga ovqat berishsin, och bo'lsa kerak. Och kishining ko'ziga bir narsa to'rtta bo'lib ko'rinaveradi.

Shafaq. Yur, Devona.

Devona. Haligi ona burgut nega shunday qildi ekan, boyvuchcha opa? Nega sizlarning rahmingiz kelmaydi, nega yig'lamaysizlar, bag'ri toshlar! (Yig'lagancha Shafaqning orqasidan chiqib ketadi.)

Tangabeka. Miyasi aynib qolibdi bu tentakning. Behuda gap! Qushlarning malikasi sanalgan ona burgut o'z palaponlarinn cho'qib o'ldirarmidi? Unday desang, o'z farzandini o'zi nobud qilgan podsholar ozmi? Mansabga mingan sari kishi ko'proq qonsirarmish.

Ishqilib, Devonaning so'zlari yaxshilikka ko'rinsin. Men umrimda birovga ozor bergan bo'lsam, tangrining o'zi kechirsin... E xudo, ko'nglim shunday g'ashki, shunday gashki, ichimni ti tirnapti. Fol ochdirmasam bo'lmaydi shekilli. Cho'ponlar biron yoqqa ketib qolarmidi, bugun bo'lmasa, ertaga borarmai. (O'tovga kiradi.)

Yolchiquk kiradi. Tangabeka ning o'tovi oldiga o'tiradi.

Yolchiquk. Ishni bitirib qaytsang to'n kiydiraman, degan edi boyvuchcha, kiydiradi ham. So'zining ustidan chiqadigan ayol.

Ammo-lekin, yangi to'nni kiyib, yasanib qayoqqa borardim?.. Har qalay, ko'nglim joyiga tushdi. Bir mag'izni yorib chiqqan ikki niholday Oqyigit bilan Zubarjad bir umrga qovushadi. Ana shunisiga xursandman. Oqyigitni o'n yetti yil puf-puflab o'stirdim, o'z o'g'limdan ham aziz bo'lib qoldi. (Qichqirib.) Hoy, boyvuchcha! Uydamsan, boyvuchcha, men keldim!

O'tovdan Tangabeka chiqadi.

Tangabeka. Kelibdi-yu, lalayib o'tirganini qara! Yo ishing unmadimi? O'g'ri-qaroqchiga uchramadingmi? Mollarni omon-eson olib bordingmi ishqilib?

Yolchiquk. Hammasini to'kis-tugal olib bordim, boyvuchcha. Ammo Risqulbekning ko'ngli to'linqiramadi. Nazarimda, mollar ko'ziga oz ko'rindi. Yana yigirma besh ot, ellikta qo'y bersin, dedi.

Tangabeka. Shunisini biluvdim-a! U ochko'z to'yarmidi! Otasi Elmirza tirikligida u bilan kengashib, gapni bir yerga qo'ygan, "Oqyigit o'n yettiga to'lganda, qalinning qolganini berasan", deb menga vasiyat qilgan zdi, vasiyatini bajardim.

Yolchiquk. Men ham shunday dedim. Lekin Risqulbek ko'zini lo'q qilib turib oldi. Biz bir-birimizga so'z berganda Elmirezabek tirik edi, endi bekning o'zi ham, martabasi ham yo'q. U dunyoda bandalarning hammasi bab-baravar, desa bo'ladimi? Men ham bo'sh kelmadim. Mollarni qaytarishga buyruq berdim. Shundan keyin bir oz shaxtidan tushdi.

Tangabeka. Shunday degin? Bunday gapga qanday tili bordi u razilning? Bu muradligi uchun shu bugunoq yaylovga urush ochardimku-ya! Ha, mayli, bolalar haqqi, gunohidan o'taman. Xudo xohlarsa, Yo'lmirzam urushdan omon qaytsa, ota sha'ni uchun kurashadigan yigit u.

Yolchiquk. Sassiqlik alafdan asl go'l ochilganiga hayronman! Zubarjadni aytaman. Men mollarni haydab borsam, o'z qizimizday oldimga chopib kelsa bo'ladimi.

Tangabeka. Zubarjadning maqtoviga so'z yo'q. Ammo Rizqul past odam. U mol olishdan ham ko'ra, bizni kamsitish, tahqirlash uchun shunday degan. Bir kun qilmishiga pushaymon yeb qolar. Qarimtalik dunyo, qaytdi.

Yolchiquk. Risqulbek, qizimga Soqmor cho'llarining hokimi Qoraxo'jadan ham sovchi kelgan edi, qaytardim, deb maqtandi.

Elmirzabekka bergai so'zimda turdim. Shuni boyvuchchaga alohida uqtirib ayt, ixlosim baland ekanini bilib qo'ysin, dedn.

Tangabeka. Go'yo odamgarchilik qilibdi-da, bizga! Takaburligi jonga tegdi. Qo'y, sadqayi so'zim ketsin! Yolchiquk, sen tezlik bilan cho'ponlarga xabar qil, ikkita yaxshi bo'rdoqini so'yishsin, taomilga to'g'rilab, urug'larning ko'nglini olaylik.

Yolchiquk. Xo'p bo'ladi, boyvuchcha, hozir aytaman. (Ketadi.)

Tangabeka (orqasidan qichqirib). Hoy, Yolchiquk, yangi to'ning muborak bo'lsin! So'zidan qaytadiganlardan emasman!

Yolchiquk (sahna orqasidan). Qulluq, boyvuchcha, qulluq!

Tangabeka (yolg'iz). Risqulni aytaman. Manman degan erkaklar urushda jon berib, jon olayotgan bo'lsa, u bu yerda quturib yursa!

Hoy, bu yerda kim bor? Gulemish! Mana bu paloslarni oq o'tovga olib borib sol, ma'lum oshini o'sha yerda beramiz. (Chiqadi.)

Bir necha daqiqa o'tgach, bir a yo l kirib, yoyib qo'yilgan paloslarni olib chiqadi, cho'l tomondan Darvesh kelyapti. O'tov orqasidan Devona chiqadi.

Devona. (katta ustixonni kemirib). Buning eng maza joyini nega ichiga solib qo'yisharkan? Hech olib bo'lmayapti! (Chalqancha yotib, og'ziga ilikni qoqadi.) Yo'q, tushmayapti. Mahkam yopishtirib qo'yishi... Qo'ya qol, yeb to'ymagan yalab to'yarmiding! Buning huzurini baroq ko'radi. (Itni chaqiradi.) Baroq, baroq, mah... mah... (Oldi-ortiga qaramasdan suyakni otadi, suyak kirib kelayotgan Darveshning oldiga tushadi.)

Darvesh. Yo parvardigor, eshikdan kirib kelgan musofirga ham tosh otadilarmi, noinsoflar!

Devona. Toshmas, suyak! Kemirolmadim.

Darvesh (suyakni ko'rib, lablarini yalaydi). O'z rizqingga tupurish nonko'rlik bo'ladi, er yigit!

Devona. Menmi er yigit? Ha-ha-ha, men devonaman, devona! Iye, kulohing alomat ekan-ku! (Darveshning kulohini olib, aylantirib ko'radi.) It dumiga o'xshagan popugi ham bor ekan! Dumidan ushlab kiyasanmi? (Darveshning atrofida yurib, uni ko'zdan kechiradi.) Ukkiga o'xshab hurpaygan ekansanmi? Yana o'zingning ham duming bo'lmasin, a? (Shaqillab kuladi.) Sen nega kulmaysan?

Darvesh. Men olisdan keldim, xudoning bandasi, sillam qurib, darmonim ketdi. Bu yerlar qaysi bekning yaylovi bo'ladi?

Devona. Meniki ham, boyvuchchaniki ham!

Darvesh. Qirdagi qo'ylar ham unikimi?

D s v o n a. Uniki ham, meniki ham. Ana u qoyalar ham, ana u poda-poda bulutlar ham meniki. O'sha bulutlarga minib olib, suzib ketsam ham bo'ladi, lekin boyvuchchani ko'zim qiymaydi!

Darvesh. Boyvuchchani kimi bo'lasan, o'zing?

Devona. Devonasi. Bir zamonlar Hozirqul degan ismim bo'lgan ekan, endi ismim yo'q. Devona desang hamma biladi. Devonani ranjitmanglar, gunoh bo'ladi, deydi boyvuchcha.

Darvesh. (Devonaga tikilib qarab turadi). Manglayingda qora xoling ham bor ekanmi?..

Devona. Ko'r bo'lganmisan, xol emas - farnshta muhri.

Darvesh. Necha yoshdasan, xudoning quli?

Devona. Men xudoning quli emasman, Devonaman! Sening o'zing qulsan!

Darvesh. Sen bechora, necha yoshda ekaningni ham bilmassan.

Devona. Mening hech qanaqa yoshim yo'q, shunday yosh-poshsiz yashayveraman! To'xta, sen kimsan o'zing? Choponingning barlarini it dabdala qilib tashlabdi-ku?

Darvesh. Men - darveshman. Jahon kezib, odamlarga imon tarqataman. Qani, Devona, boyvuchchangning oldiga olib bor-chi meni. Tizzalarimda darmon qolmadi, holdan ketyapman: uch kundan beri tuz totganim yo'q.

Devona. Boyvuchchani o'tovi shu! Boyvuchcha opa, boyvuchcha opa! Darvesh keldi. Kel, tomosha qil, kulohining popugi bor. Yelkasida mesh bilan o'tov orqasidai Shafaq chiqadi. Darveshni ko'rib to'xtaydi.

Darvesh. (o'zicha). Subhonolloh, suv parisiday bu suluv qaydan paydo bo'ldi? (Ko'ksiga qo'lini qo'yib, egilib salom beradi.)

Devona. Tizzalarida darmon qolmagan Darvesh shu bo'ladi, Shafaq.

Shafaq o'tov tomonga yuradi.

Darvesh. Charchab, chanqab kelgan musofirga bir qultum suv bersang, savobga qolar eding, suluv qiz!

Devona. U qiz emas, kelin. Yo'lmirzaning xotini. Yo'lmirzaning o'zi oqqoshsho urushida. Kelib qoladi! Kechasi, qulog'imni yerga tutib, ot tuyoqlari dupurini eshitdim. Hademay kelib qolishadi.

Darvesh (fotiha o'qiydi.) Farishtalar Devonaning so'ziga omin desin!

Devona. Ollohu akbar!

Shafaq o'tovga kiradi. Darvesh suluvning orqasidan havas bilan qarab qoladi.

Darvesh. Tangrining qudrati zo'r. Ko'hlikni ham, xunukni ham o'zi yaratadi. (O'tiradi.)

Devona. Sen ko'hlikmi yoki xunukmi?

Darvesh. Ko'hlik emas...

Devona (diqqat bilan qarab). Xunuk, xunuk.

Shafaq katta tovoqda qimiz olib chiqadi.

Shafaq. Ma, boboy, qimiz ich, tashnaligingni bosadi.

Darvesh (kosani oladi, nimalardir o'qib, bamaylixotir ichadi). Rahmat, suluv, murodingga yet!

Shafaq. Aytganing kelsin.

Tangabeka ko'rinadi.

Devona. Boyvuchcha! Darvesh, darvesh keldi.

Darvesh (o'rnidan turadi). Assalomu alaykum, boyvuchcha, elu yurtningni, molu joningni xudo o'z panohida asrasin, sihat-salamatlik, xotirjamlik bo'lsin, boyvuchcha, boshingdan baxt qushi arimasin.

Tangabeka. Rahmat, musofir, aytganing kelsin, sening ham niyating xayrli, qadaming qutli bo'lsin, xush ko'rdik./

Darvesh. Qani, o'tirib bir haqingga duo qilaylik, boyvuchcha!

Fotiha o'qiydilar.

Devona. Men ikkinchi marta o'qishim bu fotihani.

Darvesh. Takrorlashdan duo qarimaydi. (Boyvuchchaga tikilib-tikilib qaraydi.)

Tangabeka. Qani, so'zla, qayerlardan bo'lasan, musofir?

Darvesh. Men payg'ambar elchisi, boyvuchcha, Makkayu Madinadan kelyapman. Payg'ambarimizning muqaddas qabr tashlariga boshimni qo'yib, xoklarini bu qo'llarim bilan ko'zimga surtib, obi zamzamlardan tatib kelgan muborak zotman. Bu foni dunyoda osiy bandalariga imon ato qilib yurishdan savob ish bormi?

Tangabeka. Tabarruk zot ekansan, niyating ezgu, safaring xayrli ekan, musofir!

Darvesh. Ezgu, boyvuchcha.

Tangabeka. Olamda tinch-omonlikmi?

Darvesh. Omonlik, boyvuchcha, senga ham yaxshi xabar keltirdim. Oqqoshshoning lashkarlari yengib, sizning elingizda ham tinchlik qaror topadi. Kutganlaringizning yo'li oq, xudo xohlasa. (Shafaqqa qarab.) Hademay ot o'ynatishib kelib qolishadi.

Devona (Yetib, yerga kulohini qo'yib tinglaydi). Yo'q, bugun ot dupuri eshitilmayapti.

Tangabeka. Devona, jim bo'l, musofirning so'zini bo'lma! (Darveshga.) Avliyo, xushxabaring uchun senga uyurimdan eng yaxshi yilqini suyunchiga berdim, tanlab ol!

Darvesh. Qulluq, qulluq, boyvuchcha, menga bu dunyoning mol-davlati kerak emas, men xudoning quliman. To'yarlik ovqat, tunarlik boshpana bersang, zakoting shu menga!

Shafaq (o'zicha). Avliyo odam ekan-a, tavba.

Tangabeka. Mayli, sening antganing bo'lsin. Kelin, darroz dasturxon olib kel, musofir ovqatlanib, dam olsin!

Shafaq. Xo'p bo'ladi, oyi.

Tangabeka. Yaxshi mehmon o'z rizqi bilan keladi, deydilar, to'yning ustidan chiqding. O'rtancha o'g'limning qaylig'i uchun bugun qalinni to'kin berib bo'ldim. Kechqurun oq o'tovda maslahat oshi beraman, uyimizning to'ri seniki bo'ladi.

Darvesh. Meni siylasang, seni xudo siylasin, gunohlaringni tangrining o'zi kechirsin, begunoh bandasi yo'q...

Devona. Iye, begunoh odam yo'k? Mening ham gunohim bormi, Tangabeka boyvuchcha opa?

Tangabeka. Sening gunohing yo'q, Devona, sen begunohsan!

Darvesh (o'zicha). Tangabeka?..

Tangabeka. Qani, o'tovga marhamat, musofir!

Darvesh. Sening noming Tangabekami, boyvuchcha?

Tangabeka. Shu Devonadan bo'lak hech kim nomimni tilga olmaydi, Elmirezabek o'lganidan buyon hamma meni boyvuchcha deb ataydi. Nazarimda, mening nomim seni hayratga solib qo'ydi chog'i?

Darvesh. Yo'q, boyvuchcha, juda chiroyli ism ekan, bunday chiroyli ismni endi eshitishim, shuning uchun g'alati tuyuldi.

Elmirezabekning o'zini bilmasam ham, dongg'ini eshitganman. Qazo qilgan ekan, rahmatlikning joni jannatda bo'lsin.

Tangabeka. O'tovga kir, musofir, dasturxon muntazir. (O'tovga kirishadi.)

Devona. Bu darveshning ko'zlari xuddi ukkinikiga o'xshaydi, yum-yumaloq, o'qrayib turadi... Ha, borib qoya qa'ridagi burgut palaponlarini ko'mib kelay, hamma o'liklarni ko'mishadi-ku, axir! (Ketadi.)

O'tovning ikki tomonidan Zubarjad bilan Oqyigit chopib chiqishib, o'zlarini bir-birlarining quchoqlariga otadilar. Ikkisi ham suvoriy kiyimida.

Zubarjad. Shu daqiqadan umrimning oxirigacha quchog'ingdan qo'yma meni, shunqorim!

Oqyigit. Endi bizni hech kim ajrata olmaydi, Zubarjadim, oq kaptarim!

Zubarjad. Xudo saxovatli, Oqyigit, ikkimizni bir tuproqda yaratgan. Tug'ilishimiz bilan bizni qovushtirgan ham tangrim, shunday bo'lgandan keyin, bizni kim ayirsin, shunqorim!

Oqyigit.

Qip-qizargan kunga boqqanda

Yo'qotaman ixtiyorimni.

U - quyoshmi, yo muhabbatdan

Inib turgan o'ng yonog'ingmi?

Salqin tunda osmonda to'lib,

Mag'rur bolqib boqar nurli oy.

Meni asir etgan oy bo'lib

Chap yonog'ing sening hoynahoy!

Yana tunda oy ko'kka chiqib,

Nuri tutsa yaylovni, qirni,

Chap betingdan ardoqlab o'pib,

Uxlataman men o'zim seni.

Tong oqarib, chiqqanda oftob,

Shu'lasiga to'lganda jahon,

O'ng betingdan o'pib behisob,

Deyman: "Yorqin quyoshim, uyg'on!"

So'ng boqarman jamolingga lol,

Kavsar labing bo'sasidan mast.

Murodimga yetganimdan shod,

Ishq shahidi bo'lsam ajabmas!

Zubarjad.

Lablarimni lablaringga qo'yib,

Darhol yana bag'ishlayman jon.

Baxtning totli o'tida kuyib,

O'lsam o'pib, sen tirilt shu on!

Sen o'pib o'lsang, men o'pib tiriltiraman, Men o'lsam sen o'pib tiriltirasan! Bas, shunday ekan, biz o'lmaymiz, Oqyigit. (Yana quchog'iga tashlanadi.)

Oqyigit. Agar sen bo'lak el-yurtda tug'ilsangu, umrimda seni ko'rmagan bo'lsam, nima qilar edim, Zubarjad? O'shanda ham albatta seki izlab topar edim, tog'lar oshib, daryolar kechar edim, ovozim boricha: "Zubarjad, qaydasan?" deb so'rog'lardim butun borliqdan. Albatta topar edim seni, Zubarjad!

Zubarjad. Men tovushingdan tanib o'zim sen tomonga yo'lga chiqar edim, Oqyigit! Qo'limdagi hassam ignaday bo'lib, etiklarimning o'qchasi yaproqday qolguncha axtarar edim seni! Va izlab topar edim! (Yashnab, shod kuylaydi.)

Men, Zubarjad otlidirman,

Oqyigitning yoridirman.

Bir ko'rishga zoridirman,

Bilgan bormi, bizning yorni?

deb ketaverardim. (Kuladi.)

Oqyigit. Yo'q, yo'q Zubarjad, unday mudhish taqdir bizga begona!

Zubarjad. Oqyigitim, ayirmoqni o'ylaganlar bo'lsa, o'yiga yetmasin, ilohim... Voy tavba, nimalarni o'ylayapmiz?..

Oqyigit. Hech kim ayirmaydi bizni. Men seni hech kimga bermayman!

Oqyigitman, orim bor,

Yonginamda yorim bor.
Hech knm yengmas qudrat bergan
Tanda qaynoq jonim bor.
Or deganim - Zubarjad,
Yor deganim - Zubarjad,
Tomirimda kezib yurgan,
Jon deganim - Zubarjad!

Zubarjad (birdan kayfi o'zgarib). Zamon biz o'ylaganday tinch emas, Oqyigit, oqpodsho akang singari seni ham urushga olib qo'ysa, nima qilaman?
Oqyigit. Yangam Shafaqday sabr-toqat bilan kutasan meni!
Zubarjad. Yo'q, Oqyigit, Shafaqdagi toqat menda yo'q, sensiz bir kun ham yashashga sabrim yo'q. Ovga borsang ham, yovga borsang ham men yoningda bo'laman.

Or deganim - Zubarjad,
Jon deganim - Zubarjad" -

deding-ku, or bilai jon hamisha yigit bilan bo'ladi. Har qanday erkakdan yaxshiroq ot chopaman, har qanday mergandan o'zib o'q otaman.
Oqyigit. Sen menga xotingina emas, qanot bo'lasan, Zubarjad, qanotsiz uchgan shunqor bormi? Sensiz yo'ldan adashaman, sensiz safar bema'no. Chindan ham sen otda botirlarday yelasan, hali hatto mendan ham o'zib ketding-ku!
Zubarjad. Sening yoningda bo'lsam hech narsadan qo'rqmayman... hatto, hatto...
Oqyigit. Qo'y, bunday gaplarni. (Zubarjadning og'zini berkitadi.)
Zubarjad (shod, erkalanib). Oqyigit, birdan meni dev olib qochib ketsa-chi? Mana bunday g'oyib bo'lib qolsam-chi? (Qattiq kulib o'tov orqasiga yashirinadi.)
Oqyigit. Men devga mana bunday tashlanib quvib yetaman-da, seni tortib olaman. (Ikkinchi tomondan o'tov orqasiga yuguradi. Bir daqiqadan so'ng haligiday ikki tomondai chopib kelib bir-birlarini quchoqlab oladilar.)
Zubarjad. Voy-voy, juda dahshatli ekan-ku, bu dev! Quchoq'iga qisib jonimni olayozdi-ya. (Oqyigitning ko'ksiga boshini qo'yadi.)
Oqyigit. Yuragimning talpinayotganinm eshityapsanmi? Xuddi qanotli qushga o'xshaydi-ya!
Zubarjad. Men bu qushni oltin qafasda saqlaymai, hammaning hasadli nazaridan uzoqda saqlayman, eshityapsanmi, hech kimga bermayman!
Oqyigit. Berma, mening suyuqlim, berma! Shu kungacha sen xuddi egar ko'rmagan hurkak toyga o'xshar eding, bugun butun boshkasan, mening Zubarjadim!
Zubarjad. Bugundan boshlab bir umrga seniki bo'ldim, Oqyigit!
Oqyigit. O'tgan kechada dahshatli bir tush ko'rdim: uchib yurgan ko'k kaptarni kalxat olib ketay dedi. Qo'rqib uyg'onib ketdim. Seni o'yladim.
Zubarjad. Qoraxo'ja urug'idan sovchi kelganini yuraging sezibdi-da! Sovchilarni ko'riboq mening ham jonim halqumimga keldi.
Oqyigit. Xayriyat, otang mardlik qilibdi, Qoraxo'jaga uncha-muncha odam bas kelmaydi.
Zubarjad. "Mening qizim ham, va'dam ham bitta, qayta-qayta uzatadigan qizim ham, qayta-qayta buzadigan va'dam ham yo'q" debdi otam. Sovchilar jahl bilan otamni yanib jo'nashipti... Lekin otam nimadandir tashvishda.
Oqyigit. Qoraxo'jaday mudhish bekning so'zini rad qilish hazil emas, Zubarjad, otang juda ham botir odam.
Zubarjad. Otam mening baxtimni tilaydi. Mening baxtim yolg'iz sensan, Oqyigit.
Oqyigit. Oyim bugun oq o'tovda ulug'larga ziyofat bersa kerak. Yosh-yalanglar ko'l bo'yiga chiqishadi, sen bilan mening sha'nimizga o'yin qilib berishadi. Davraning o'rtasida ko'l yuzidagi oq nilufarga o'xshab sen turasan, Zubarjad! Men sevgi to'lqinida suzanday baxtiyor suzib boramanu, shu nilufarni uzib olaman.
Zubarjad. Uz, Oqyigit, uzib ol! Nilufar seniki! (Ma'yuslanadi.)
Oqyigit. Nega ma'yus tortding. Nilufarim, yo ko'ngling biror so'zimdan ozor chekdimi?
Zubarjad. Biz ikkalamiz ham juda nonko'r ekanmiz, Oqyigit, onang oldida tiz cho'kib, minnatdorchilik ham bildirmadik. Fotihalarini oldigu, qulluqni nasiya qildik.
Oqyigit. Zubarjadning qo'lidan ushlab o'tov eshigiga keladi. Ikkisi ham tiz cho'kishadi.
Oqyigit.
Oq sut berib boqqan o'g'ling qoshingga keldi,
Oq o'tovdan chiq, ey onajon!
Ikki yurak bir ishq bilan senga egildi,
Oq fotihang ber sen, onajon! O'tovdamisan, onajon?
O'tovdan soqolini silab Darvesh chiqadi. Yoshlar sarosimada. Keyin Tangabeka ko'rinadi.
Tangabeka (Darveshga). O'g'lim Oqyigit bilan kelin bo'lgusi Zubarjad shu bo'ladi! Haqlariga duo qilib, fотиha ber, musofir!
Darvesh. Yo parvardigor, Oqyigit bilan Zubarjad otli bu qullaringga o'zing insof-tavfiq ber, hamjihatlnk va arkon davlat ato qilgin, ollohu akbar!
Tangabeka. Payg'ambar elchisi atalgan muborak odam fотиha berdi sizlarga, bolalarim. (Darvesh bosh egib turadi.) Yoziq bandalariga imon tarqatib yurishdan boshqa ishi yo'q buning, baxtli bo'lasizlar.
Oqyigit. Otam vasiyatiga amal qilib, boshimizni qovushtirib, savobimizga qolding, oyi, tiz cho'kib qulluq qilamiz!
Tangabeka. Vasiyat, urf-odat biz uchun muqaddas qonun, bolalarim, sizlar ham unga xiyonat qilmang! (Avval Zubarjadning boshiga o'ng qo'lini qo'yadi.) Ko'krak suti berib o'stirmagan bo'lsam ham, Zubarjad, bag'rimga bosib fотиha beraman. Mening xonadonimga bolam bo'lib kirasan. (Oqyigitning boshiga qo'lini qo'yadi.) Yashirmayman, eng suyuqli o'g'lim sek, Oqyigit!
Hamisha baxt, tole yor bo'lsin, omin!
Oqyigit (sakrab, oyoqqa bosadi, Zubarjad ham turadi). Onajon, sen meni yorur dunyoga keltirib bir marta baxtiyor qilgan eding.

Zubarjadim bilan qovushtirib, menga bir olam tole ato qilding, odamga bundan katta baxt ham, davlat ham bo'lmaydi, onajonim!

Quyosh, oyli ko'kim bor,
Qir, yaylovli yurtim bor,
Barini sen berding, onajon!
Oppoq baxtga mo'l bo'ldim,
Muhabbatga qul bo'ldim,
Barini sen berding, onajon!

Tangabeka. Avvalo, bolalarim, yurak quli bo'lmanglar, aql quli bo'linglar! Ko'ngil daryoday bebosh narsa, to'lqinlanib har yoqqa seni uraveradi. Aql tog' cho'qqisnday yuksak va mustahkam bo'ladi. Unga suyangan yiqilmaydi, bolalarim!
Oqyigit. O'gitlaringga qulluq, oyijon! Yaxshi orzular to'lqinga solgan yurak yomonlik keltirmaydi.
Tangabeka. Hali yoshsan, bolam, aql bilan yurak o'rtasidagi kurash jangini bilmaysan. Mabodo boshingga tushib qolguday bo'lsa, aqlingga quloq ber!
Oqyigit. Yozmishdan deydilar. Lekin men uchun ona so'zi - taqdir muhri. So'zingdan chiqmaymiz, oyijon.
Darvesh. Shunday... Shunday itoatli bo'linglar! (Bir chekkaga o'tib, boshini egib o'tiradi, o'zicha.) Bularni kstiqbolda turli-tuman shodlik, baxt, sevgi kutadi. Orqalarnda dillariga xiralik soladigan hech narsa... Men-chi, ey umr, esiz umrim...
Tangabeka. Akang urushdan qaytib kelishi bilan butun yaylovni chorlab to'y qilamiz, katta uloq choptiramiz. Elmirzaning zoti hali tirik! Boringlar, o'ynanglar endi, bolalarim!
Oqyigit. Ketaveraylikmi, oyi?
Tangabeka. Sabr qiling! Hoy, kelin! Shafaq!
Shafaq o'tovdan chiqadi.
Shafaq. Chaqirdingmi?
Tangabeka. Ha... Anavi ikkita xitoy kosa bor-ku, o'sha kosalarga qimiz to'ldirib chiq!
Shafaq. Xo'p bo'ladi.
Tangabeka. U vaqtda ikkovinglar ham beshikdagi go'dak edinglar. Xuddi mana shunday ko'klam payti edi. Otang rahmatlik katta poyga berdi. Ziyofatda zodagon, ulug'lar naq tumonat. Shu ziyofatda Risqulbek bilan Elmirzabek sizlarni beshikkerti qilib qo'yishdi. To'y yana uch kecha-yu kunduz davom etdn. Oqmon shoir sizlarning sha'ningizga ko'shiq to'qidi.
Oqyigit.

"Ko'kka boqpb o'y surdim,
Yulduzni yondosh ko'rdim.
Yerda ikki go'dakning
Umrini yo'ldosh ko'rdim..."

Shu qo'shiqmi, oyi?
Tangabeka. Shu, Oqyigit, shu!
Kosalarni ko'tarib Shafaq chiqadi.
Mana shu kosalarni to'ldirib ikki bek qimiz ichishdi. Shundan beri o'n yetti yil o'tdi. Bu kosalarda endi sizlar o'z baxtingiz uchun iching!.. Shu limmo-lim juft kosaday toleingiz to'liq bo'lsin, baxti bekam bo'ling!
Shafaq kosaning birini Zubarjadga uzatadi. Zubarjad kosani labiga olib borib, to'xtab qoladi. Shafaq kosani Oqyigit ga tuta turib, ko'zi Darvesh nazariga tushadi.
Shafaq kosani tashlab yuboradi. Hamma sarosimada.
Tangabeka. Senga nima bo'ldi, kelin?
Shafaq. Bilmayman.
Tangabeka. Yaxshilikdan bashorat emas, Shafaq. Ilohim, yaxshilikka ko'rinsin!
Oqyigit. Xafa bo'lma, oyijon, kosa butun! Qimiz to'kilgan bo'lsa hechqisi yo'q, oqlik!
Shafaq. Kuyinma, ona, xudo xohlasa, ularga hech narsa bo'lmaydi, nima kelsa ham mening boshimga kelsin, men to'kdim.
Oqyigit. Umr bo'yi folbin, irim-sirimga topinding, oyi, biron narsani o'zgartiroldingmi? Quyosh boyagiday charaqlab bolqiydi, maysalar boyagiday yam-yashil. Shu xayollarni itqitib tashla, ona, bugungi shodligimizga tashvish, vahima ko'lanka solmasin!
Bizga fotihangni berdingmi, bas. Bir kosa emas, o'n kosa qimiz to'kilsa ham bizga hech narsa bo'lmaydi. Qo'sh yulduz osmonimizda porlab turaveradi!
Darvesh. Qismatimiz peshonamizga yozig'liq. Uni hech narsa sidirib tashlayolmaydi. Tahlika qilma, boyvuchcha, yozilgani bo'ladi.
Oqyigit. Oyi, mana biz ikkalamiz bir kosadan icha qolamiz, qaytaga yaxshi bo'ldi, bir kosadan ichsang yanada shirin tatiydi, rostmi, oyi?
Tangabeka indamaydi.
Zubarjad. Xafa bo'lma, boyvuchcha opa, kosamiz limmo-lim! Ma, Oqyigit, avval sen ich, o'tinaman!
Oqyigit. Sen ich, Zubarjad, o'z ulushingni avval sen ich, qolganini men ichaman. (Zubarjad ichadi, keyin Oqyigit oxirigacha ichadi.) Umrmda bunday totli qimiz ichmaganman!
Tangabeka. Nasibangizni butun ichmadinglar, bolajonlarim! Baxt toleingiz yarim-yorti bo'lmasin, ilohim.
Oqyigit. Ikkimiz bir tan, bir jon bo'lgandan keyin bir baxt kifoya emasmi, onajon!
Devona chopib kiradi, orqasidan Eshmirza ko'rinadi.
Devona. Boyvuchcha, boyvuchcha opa, suyunchi ber!
Eshmirza (sakrab, sakrab). Suyunchi, suyunchi! Suyunchiga besh oltin, suyunganga o'n oltin!
Devona. Suyunchi, suyunchi! Iye, nega hech kim suyunmaydi?

Tangabeka. Quvonchli xabaringni aytib, hali sevintirmading-ku, Devona?

Devona. Hozirgina chopar o'tib ketdi. Urushdagilar qaytyapti, dedi. Askar yigitlar Ko'ktepaga ko'tarilayotgan emish.

Eshmirza. Choparning oti terga botib ketgan. O'q-yoyi obkashga o'xshaydi. Akam kelganda kamonini men ham tortib ko'raman. Hamma kutish hayajonida.

Tangabeka. Seni xudoning o'zi yorlaqasin. Devona, suyunchiga senga sarpo kiygizaman, Eshmirzaga shoyi yalang to'n qilib beraman.

Devona. Suyunchiga menga xotin olib ber, boyvuchcha, hammasining xotini bor, faqat mening xotinim yo'q, Eshmirzaga ham xotin olib ber!

Tangabeka. Bu tentakka nima desam bo'ladi? Hamma ham xotinli bo'lavermaydi, axir!

Shafaq. (turgan joyida gindiraklab ketadi). Bunday sevinchga yetar zamon bor ekan, tangrim! Yuragim, yurakkinam shunqorga o'xshab qinidan chiqa zo'ryapti, onajonim! (Tangabekanang pinjiga tikiladi).

Tangabeka. Katta shodlik, qayg'uday og'ir keladi, bolam, bardam bo'!

Devona (yotib tinglaydi). Otlarning dupuri eshitilyapti. Bittasining oti shatirlatib chopib kelayapti, shu Yo'lmirza bo'lsa kerak?

Tangabeka. Nasibasi qo'shilgan bo'lsin, bolamniig, nasiba haydab keladi.

Oqyigit. Ijzat ber, onajon, Zubarjad ikkovimiz akamizni karshilagani chopaylik! Otlarimiz tayyor, egarlangan!

Tangabeka. Rasmi, yovga ketganni uzatib bormaydi, qaytganning yo'liga chiqmaydi, bolalarim! Burungilar sabr, sabr deganlar.

Darvesh. Mana, boyvuchcha, bashoratimga tan berdingmi. Tilaklaringni xudoning o'zi qabul qildi.

Tangabeka. Bizni sen xushnud qilsang, seni xudo quvontirsin!

Shafaq. Toqatlarim toq bo'ldi, oyijon, ko'zim tinib, yer-ko'k aylanayotganday! Ijzat ber menga, istiqboliga yuguray! Yo'lmirzamni olib kelgan otning yollarini tarab o'pay, izlarini ko'zimga surtay.

Tangabeka. Sabrsiz bo'lma, kelin!

Zubarjad (Shafaq oldiga keladi). Shodlik seni majnuntolday egib qo'ydi, Shafaq. Boshingni ko'tar, ovsin! Sening quvonching hammamizning quvonchimiz, jonginam!

Shafaq. Kutish yillari bu qadar qiyin tuyulmagan edi, Zubarjad. Diling talpinib, ko'zing ko'rmagandan og'iri yo'q ekan!

Devona (uzoqqa qarab). Ana, tepaga otliq chiqdi... yana... yana biri chiqdi... voy-voy, buncha ko'p ekan?

Hamma o'sha tomoyaga qaraydi. Darvesh gina joyidan qimirlamay o'tiribdi.

Eshmirza. Oldinda kelayotganning uchinchisi akam... xuddi o'zi...

Tangabeka. Yo'q, u emas. O'z botirimni o'zim tanimaymanmi?

Oqyigit. Anavi to'rtinchisi akamga o'xshaydi!

Tangabeka (Shafaqqa nazar tashlab). Kelin, yovdan g'olib qaytgan erni shu taxlit kutadimi?! Ust-boshingga qara! Ering nima deydi?

Shafaq (birdan hushini yig'ib). Rost aytasan, onajon! Es-hushimdan ajrab qolibman, Nima qilay, qaysi ko'yilagimni kiyay, onajon, ayt, nimani kiyay?

Tangabeka. Bugun yarashganini tanlab kiy!

Shafaq. To'y oqshomi knygan ko'yilagimni kiyib chiqsam-chi?! Bo'ladmimi, oyi?

Zubarjad. O'shani kiy, Shafaq, o'shani kiy, ovsin. Bugun ham to'ying!

Shafaq shoshilinch o'tovga kirib ketadi. Bir dam jimlik.

Tangabeka. Haligi chopar nega biznikiga kirmay o'tdi ekan?

Devona. Suvorisiz bir ot yetakda oqsab kelayapti-yu, lekin juda qaysarlik qilyapti.

Oqyigit. Men akamni ko'rmayapman, nega odamlar ichida akam yo'q? Sen ko'ryapsanmi, oyi?

Tangabeka. Bilmayman, bolam, hamma otliq ko'zimga akang bo'lib ko'rinyapti.

Oqyigit. Akam yo'q, oyi. Oldingilar yaylovga yetib keldi. Akam yuzboshi axir, yuzboshi oldinda kelmaydimi?

Devona. Ana, haligi oqsoq otning yuganini olib, cho'lga xaydab yuborishdi... Yo'q, ot ketmay yana boshqalarga qo'shilib oldi.

Hamma jim kuzatadi. Shafaq kiyinib chiqadi.

Shafaq (o'ziga). Mana, to'y ko'yilagimni kiyib, sening bilan qovushmoqqa chiqdim, mening Yo'lmirzam! Sen otingga qamchi urib nega yelib kelmayapsan? O, Yo'lmirzam, menda zarracha sabr-toqat qolmadi. (Zubarjad bilan Oqyigit o'rtasiga kiradi.) Sizlar ko'ryapsizmi? Nega men ko'rmayapman, yo xudo, men hech kimni ko'rmayapman, Yo'lmirza qaysi biri?

Hamma jim. O'tov orqasidan otliqlar o'ta boshlaydi.

Tangabeka (oldindagi otliqqa). Boyish, senmisan? Nega yoningda Yo'lmirza ko'rinmaydi? (Otliq o'tib ketadi.) Nega javob bermaysan, Boyish?!

Oqyigit. Boshini egib o'tib ketdi...

Tangabeka. Hoy, Borliboy, yuzboshingiz Yo'lmirza nega orqada qolib ketdi? (O'sha tomonga intiladi.)

Oqyigit. Bu ham boshini egib o'tib ketdi...

Tangabeka. Hech bo'lmasa, sen javob qil, Qo'losh, nega orangizda Yo'lmirza yo'q? Mening bolam qayoqda qoldi?

Devona. Bari o'tib bo'ldi...

Tangabeka. Hammasining tili kesilganmi, nima balo? Nega javob qilmay o'tib ketishdi?!

Yovdan qaytayotganlardan biri kelib, Boyvuchcha oldiga yugan bilan kichik bir tuguncha qo'yadi. Devona yugurib kelib yuganni oladi. Tugunchani ushlab ko'radi.

Devona. Bu tugunchada yana oltin bo'lmasin, boyvuchcha?

Tangabeka. Tuproq! Qora tuproq! Yo'lmirzamning qabr tuprog'i! Oh bolam, bolam, bolam!

Shafaq. Yo'lmirza! Yo'lmirzam! Yoningga tort, Yo'lmirza! Tort meni yoningga, Yo'lmirzam! Bu to'y ko'yilagim kafanim bo'lsin! (Qichqirib yig'lab, Oqyigit bilan Zubarjad o'rtasiga yiqiladi.)

Ular o'zlarini chetga oladilar. III a f a q ni hech kim suyamaydi.

Tangabeka. Men senga nima gunoh qiluvdim, e, xudo! Meni jazolaganing jazolagan! Umrim bo'yi g'azabingdan qutulmadim!

Gunohim nima?! (Birdan jim qoladi.) Bolam... O'g'ilginam, bolam!..

Devona Shafaq yoniga o'tirib, uning sochlarini silaydi.

Devona. Yig'lama, Shafaq, sen menga xotin bo'lasan!

Ikkinchi Parda

Oradan bir necha kun o'tgan. Tangabeka ning o'tovi. Oqsoqollar o'tiribdi. Darvesh ham shu yerda. Go'sht yeb bo'lib, qimiz ichyaptilar. Bir chekkada Shafaq.

Tangabeka. K.ani, kelin, chaqqon, chaqqon. Oqsoqollarning qo'llariga suv quy! Keyin boshqa ishlarga qara!

Shafaq dashsho'y va qumg'on tutib mehmonlarning qo'llarini yuvdiradi.

Birinchi oqsoqol. Rahmat, boyvuchcha, juda katta ziyofat qilib yubording, fe'lingni xudo hamisha shunday keng qilsin!

Ikkinchi oqsoqol. Xonadoningni Elmirzaning saxovati tark etmabdi, kelin. Davlatingga xudo baraka bersin. Sen boyvuchchagina emas bek, bekasan.

Uchinchi oqsoqol. Saxiying davlati kamaymaydi, deydilar. Bu dunyoni kim orqalab ketibdi. Yeganing, ichganing qoladi, o'ynab-kulganing qoladi. (Shafaq qo'lga suv quyganicha barmoqlarini yalaydi.)

Tangabeka. Endi qimizdan tanovul qilinglar.

Uchinchi oqsoqol. Taomdan ulug' bo'lmoq gunoh! Tanovul qilamiz, boyvuchcha. (Ochko'zlik bilan ichadi.) Vay-bay-bay, butun tomirlaringa moyday yoyilib ketdi-ya.

Shafaq ketadi.

Tangabeka. Risqulbekka chopar yuborgan edim. Hanuzgacha daragi yo'q.

Uchinchi oqsoqol. Elboshining elda ishi chiqib qolgandir-da.

Ikkinchi oqsoqol. Sanqib yurmaganidir, albatta.

Birinchi oqsoqol. Kelmas bekni kutmaydilar.

Uchinchi oqsoqol. (Qimiz ichadi.) Bu gap ham to'g'ri.

Tangabeka. Nima qilsam b' nima bo'ladi, deb tunlar mijja qoqmay o'ylab o'yimga yetmayman. Sizlarning maslahatingizga muhtojman. Fozil hukmingizni chiqarib bering, oqsoqollar!

Birinchi oqsoqol. Ha, boyvuchcha, baxtingga raxna ketdi. Lekin uni tiklash kerak. O'lgan ketidan kim o'libdi?! Tiriklar tirikligicha kun ko'raveradi.

Uchinchi oqsoqol (qimiz ichib). Yeydi, ichadi, dunyodan o'taveradi.

Birinchi oqsoqol. Falakning gardishi, boyvuchcha. Ko'nmay ilojing qancha?

Tangabeka. Shu falak gardishini iziga solib yubormoq kerak.

Ikkinchi oqsoqol. Kengashlik to'y tarqamas deganlar, kengashib ko'raylik.

Tangabeka. Shafaq kelin o'n gulidan bir guli ochilmay, mana, ersiz qoldi. Uni uyur-uyur mol berib olganimdan xabaringiz bor. Oqyigit uchun Risqulga qalinni to'lab bo'lganman. Endi nima qilay, yo'l-yo'riq ko'rsatinglar!

Ikkinchi oqsoqol. O'tganlardan qolgan odat va taomil bor, vasiyat bor, boyvuchcha, shariat shar'idan chiqib bo'lmas!

Uchinchi oqsoqol. Kenja o'g'lingni ham o'ylamaslik insofdan emas. Kenjang ham o'sib bo'yi yetpb qoldi. Necha yoshga bordi?

Tangabeka. Hali bola, endi o'n ikkiga to'ldi.

Uchinchi oqsoqol. Men to'qqiz yoshimda akamdan beva qolgan yangamga uylanib, uning qo'yniga kirganman.

Birinchi oqsoqol. Bizni chaqirganingdayoq bilgandim, boyvuchcha. Bu haqda bir sen emas, butun urug' o'ylayapti, sening tashvishing urug'ning tashvishi. Yursam ham, tursam ham o'ylayman. Mana bu qurdoshimiz aytganiday, taomilga amal qilib, udumimizni tutaylik. O'tganlar vasiyatini ado etaylik!

Ikkinchi oqsoqol. Eshmirzani yanganing qo'yniga kiritib bo'lmaydi. Bu shariatga xilof, negaki o'zidan katta tirik akasi bor, ulug'lar!

Birinchi oqsoqol. Buni ham o'ylab keldim, o'ylab o'tiribman. Bu yerda birgina yo'l bor, boyvuchcha. Shafaq kelin Oqyigitga bo'ladi. Risqul olgan qalinni qaytarib berishga qurbi yetsa, qizini Qoraxo'ja urug'iga beradi-qo'yadi. Yanglishmasam, sovchilar ham kelib yurgan edi.

Darvesh bezovta.

Tangabeka. Qalinni katta olgan. Qaytarishga qurbi yetarmikan? Boyning moli ham hisobli.

Uchinchi oqsoqol. Qaytarmasa, Zubarjadni kenjang Eshmirzaga unashtirib, ikki to'yni birga o'tkazasan. Urug' ham yeb-ichib, ko'ngilxushlik qilib qoladi. El orasida bundaqangi to'ylar bo'lmaganmi?

Tangabeka. Oqyigit bilan Zubarjad naq bir olmaning ikki pallasi! Bir-birlarini o'lguday suyushadi. O'n yetti yillik shirin orzularidan mahrum etish juda qiyin savdo.

Ikkinchi oqsoqol. Suyushmoq b' shaytonning makri. Bandalarni yo'ldan ozdirib harom-xarishga boshlagan ham o'sha oshiq-ma'shuqlik emasmi? O'sha! Hamma o'shalarning kasriga uchrayapti.

Tangabeka (seskanib ketadi). To'g'ri aytasan...

Birinchi oqsoqol. Ixtiyor bizda emas, boyvuchcha, shariat shuni taqozo qiladi. Risquldan qalin qaytmas, ikki o'g'lingni birvarakay uylantirayean. Ammo, avval Yo'lmirzaning qirqini o'tkazish kerak.

Ikkinchi oqsoqol. Bo'lmasa shunday deb fотиha qilamiz, boyvuchcha.

Darvesh. El og'alari, andak sabr qilinsa. Musofirning ham bir kalima so'zini tinglasangizlar.

Uchinchi oqsoqol. Ha, payg'ambar elchisi nima demoqchi ekan, eshitaylik.

Darvesh. O'ylab ish tuting-da, oqsoqollar. Nikoh yoshiga yetmagan, hali o'n ikkiga ham to'lmagan o'smirni nikohlash - bu shariatning muqaddas qonuniga xilof. Tanangizga o'ylab ko'ring.

Uchinchi oqsoqol. Yaylovning o'z qonuni, o'z taomili bor, Darvesh, biz uchun o'sha muqaddas!

Darvesh. Yo'q, ulamolar, bu ishingiz shariatga to'g'ri kelmaydi. Shafaq taqdiriga tan berib, tangriga imon keltirib, begunoh tulligicha o'tib ketsa, urug'ingizning obro'si bo'ladi. Mana bu haqda fikr yuritib ko'ringlar.

Keksalar ikkilanib qolishadi.

Tangabeka. Ehtimol, Darvesh haqdir, hukm chiqarishga shoshilmanglar.

Ikkinchi oqsoqol. Yo'q, boyvuchcha, yaylovimizning urf-odatlarini, taomili o'zingga ma'lum. Biz ham ko'pni ko'rib umr kechirgan kishilardanmiz. Muqaddas taomilimizni oyoq osti qilgan bandalarni Olohi-taoloning o'zi jazolamay qo'ymaydi.

Darvesh. Gunoh ish qilyapsiz, qariyalar, gunoh ish.

Birinchi oqsoqol. Mana bu taqsimimiz aytganday, bizlardan ham keksa taomilimiz bor, o'shanga amal qilamiz, Darvesh.

Tangabeka qaytib kiradi.

Darvesh. Makkai Mukarrama bilan ont ichib aytaman, hukmingiz insofdan emas!
Uchinchi oqsoqol. Ka'ba, Makkayu Madina uzoqda, Darvesh, bizdan olisda. Tavba, deb aytish kerakku-ya, biz erkin, sahroyi odamlarmiz. Sahroning o'z qonunlari bor. Sen bilan bizning z'tiqodimiz bir bo'lsa ham, yo'rig'imiz, taomilimiz boshqa.
Darvesh. O'zingiz ham vahshiy, taomilingiz ham! Sizlardan itlar ham xazar qiladi.
Birinchi oqsoqol. Shuni bilib qo'yki, Darvesh, biz o'zimizni kamsitishga hech kimga yo'l qo'ymaymiz, hatto senga ham.
Ikkinchi oqsoqol. Qani, taqsirlar, omin deng, xayrli ishga fotiha beraylik.
Darvesh dan boshqalari fotiha o'qiydilar.
Birinchi oqsoqol . Boyvuchcha, bizga ruxsat endi. Izzat-hurmating uchun qulluq. Davlatingni xudo ziyoda qilsin.
Tura boshlaydilar.
Uchinchi oqsoqol (qimiz ichadi). Shoshiladigan yoshdan o'tganmiz shekilli, qariyalar, taomni tashlab ketish yarasharmikan?
Ikkinchi oqsoqol. Yarashadi, yarashadi. Ovqatdan boshqa darding yo'q! Qani tura qolinglar endi.
Tangabeka. Katta boshingizni kichik qilib keldingizlar, ulug'lar, savob ishga bosh bo'ldinglar, tanu joningizni xudo salomat qilsin.
Ketishadi. Tangabeka kuzatib chikadi.
Darvesh. La'natilar! Yo'q! Baribir aytganimni qilaman. Tangabeka mening changalimda-ku. Xohlasam bo'g'aman, xohlasam qo'yaman. (Panjalarini yulib ochadi.)
Tangabeka. Maslahatingni olmaganlariga ranjima, darvesh, bizning urf-odatni hazm qilishing qiyin. Menga ham oson tutma. Yuraklarim ezilib ketyapti. Bu ish hali necha odamning qon-qon yig'lashiga sabab bo'ladi. Lekin, odat hammadan beshafqat, taomil hammasidan kuchli. Bunga sening tushunishing qiyin!
Darvesh. Sizlarning vahshiy taomillaringizni bilmayman, boyvuchcha, bunisi haq! Lekin o'zimga nima kerakligini bilaman!
Tangabeka. Tilagingni bajo keltiraman, musofir!
Darvesh. Va'dani katta qilib, keyin og'rinib o'ltirma, boyvuchcha.
Tangabeka. So'zlaring allaqanday g'alati ko'rinyapti. Gaplaring ham bir xil. Nafasingni issiq qil, mehmon, yot yurtidan kelgan kishi bo'lsang...
Darvesh. Din-e'tiqod yo'llarida qirq yil kezib charchagan odamman, boyvuchcha. Musofirlik hassasidan boshqani ko'zim ko'rib, qo'lim tutgani yo'q. Men ham tirik odamman. Bag'rimni tosh deb o'ylaysanmi?
Tangabeka. Gaplaring g'alati, musofir, bu so'zlarning menga nima daxli bor?
Darvesh. Sendan boshqa kimga gapiraman, axir, boyvuchcha?
Tangabeka. Sen bir yoqdan kelgan odamsan, darvesh! Bu yerga olib kelgan qiymating yo'lingni ham berar.
Darvesh. Mening ham shoshiladigan davrim o'tib boryapti, boyvuchcha. Tashqarida ot dupuri eshitiladi. Birov otdan sakrab tushadi.
Tangabeka. Otda birov keldi. Oti hansirayapti. Olisdan kelgan choparga o'xshaydi.
Risqul kiradi. Boyvuchcha u tomon bir necha odim yuradi.
Risqul. Assalomu alaykum, el-yurting omon, mol-davlating ziyoda bo'lsin, boyvuchcha! (Darveshni ko'rib.) Assalomu alaykum!
Darvesh. Vaalaykum assalom, bek!
Tangabeka. Aytganing kelsin, Riskulbek, qani, to'rga o't! Kelmaganingga xavotirlanib, o'zim boray deb turgan edim.
Risqul. Choparing borganda ovda edim. Xabar topishim bilan orqamga qaytdim. Oqsoqollar tarqalishipti-da?
Tangabeka. Ha, seni ancha kutishdi.
Risqul. O'tirib, fotiha qilaylik. (Fotiha qiladi.)
Tangabeka. Oving durust bo'ldimi, Riskulbek?
Risqul. Yo'q, boyvuchcha, ovim yurishmadi, ikkitagina karqur bilan qaytdim. Ovning mazasi yo'q, yil og'ir keladiganga o'xshaydi.
Tangabeka. Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin...
Risqul. Oqsoqollar qanday hukmga kelishdi, boyvuchcha?
Tangabeka. Bor taomildan o'tib qayoqqa borishar edi, Oqyigit uchun kelin uyda bor. Olgan qalinni to'la-to'kis qaytara olsang, Zubarjadga yana o'zing xo'jasan, qaytara olmasang, uyimizda kenja o'g'lim o'syapti... (Qimiz uzatadi.) Qimizdan tanovul qil, bek, go'shtga nasibang qo'shilmagan ekan.
Risqul. Taqdir shu ekan, nima ham qilamiz, boyvuchcha, Zubarjadga ham sovchi kelgan joyi bor. Qoraxo'ja oyog'ini tirab turibdi. Hali yana sovchi yuborsa kerak, bergan mol-joningni qaytaraman, qarindosh bo'lish nasib qilmagan ekan.
Darvesh. Yo xudovandi karim, mol-mol deysizlaru, bolalaringizni o'ylamaysizlar-a!
Risqul. Bu haqda sen o'ylamasang ham bo'ladi, Darvesh! Shunday qilib boyvuchcha, bergan molingning hammasini qaytarib yuboraman, hammasi hisobli.
Tangabeka. Avvalgi yuborgan mollarimning urchishini ham hisobga olib, sanab qaytarishni unutma!
Risqul. Bo'lmasa kelishib olaylik. Qancha urchidi deb taxmin qilasan? Ammo-lekin, bir oqsoq taka kam bo'lsa ham qo'ymayman.
Tangabeka. Boshqa odamdan birga birni olar edim. Sening bekklik mansabingni inobatga olib, ikki boshga bir bosh bo'lsa ham rizoman.
Risqul (sakrab o'rnidan turadi). Og'zingga qarab gapir, boyvuchcha, bekklik mansabimni molga urib, meni kamsitmoqchimisan?
Tangabeka. Behudaga qizishyapsan, bek. Sen bor, mansabing bor, shuning uchun sha'ningga qo'shyapman-da.
Risqul (nimanidir zslab). Hay, mayli, boyvuchcha, qasosingni olding! Hazilimni chin bilgan ekansan!
Tangabeka. Dunyo shunaqa, Risqul, bekklik umrlik bo'lsa ham, umr mangulik emas. U dunyoda hamma bab-baravar.
Risqul. Voy-bo', keking zo'r ekan-ku!
Tangabeka. Ziyofatga yarasha fotiha deydilar, bek!
Risqul. Ko'payishi bilan talab qilib, terimni shilasan-ku!
Tangabeka. Sening tering nimaga yarar edi, halol molimni senga harom qilib qoldirsam, hurmatsizlik bo'lar, bek!
Risqul. Shu orada mollarga necha marta o'lat keldi. Qancha mol qirilib ketdi. Qaysi mol urchisin?! Meni qiyin savdoga qo'yding-ku!
Tangabeka. To'g'ri aytasan, bek, o'latlar bo'ldi. Lekin qalin moliga o'lim yo'q. Qirg'in kishining o'z moliga keladi.
Risqul. Meni Riskulbek deydilar, boyvuchcha, adi-badi aytishib o'ltirishga tobim yo'q, bo'ladigan gapni ayt!
Tangabeka. Bo'larini aytdim, bek!
Darvesh. Boyvuchchaning nafsi buzuq emas, bek, ortiq so'rashi ham mumkin edi...

Risqul. Sen din ahliyan, Darvesh, bu dunyo ishlaridan uzoqsan. Aralashmaganing ma'qul!

Darvesh. Ixtiyoring, bek!

Tangabeka. Mayli. (Keskin.) Yaxshiligimni unutmassan. Beshtaga bittadan qo'shib ham molni yaylovga yubora qol!

Risqul. O'taga bitta beraman, vassalom!

Tangabeka. Ey, qo'y-e, seni bek deb kim aytadi, xotindan battarsan...

Risqul. Senga xudo bas kelsin, menga mol emas, obro' qimmat. Beshtaga bittadan qo'shib haydatib yuboraman mollaringni...

Lekin, boyvuchcha, sen bilan qayta uchrashishdan xudoning o'zi asrasin! Qizim sening domingga tushib qolmaganidan juda xursandman. Shuni bilki, Risqulbek hech narsani unutmaydi! (Chiqib ketmoqchi bo'ladi.)

Tashqarida ot dupuri eshitiladi. Biqinini changallab chopar kiradi.

Chopar. Xunuk xabar, begim, xunuk xabar olib keldim! (Og'ir nafas oladi.) Buyragimni o'q teshib o'tdi.

Risqul. Buyragingni qo'y, oldin xabaringni ayt!

Chopar. O'tgan kechasi uzoqdagi podaga qora bulutga o'xshab yov yopirilib keldi. Qoraxo'janing odamlari barimtaga kelgan bo'lsa kerak. Butun mollaringni haydab ketdi.

Risqul (choparga qamchi o'qtalib). Senlar qarab turaverdilaringmi yoki quyonga o'xshab in-iningga kirib ketdilaringmi?

Chopar. Tuni bo'yi olishdik, bek, yoqalashdik, kuchimiz yetmadi, bek. Hamma yilqichilaring, qo'yboqarlaring o'lgan, qanday qilib men omon chiqqanimga hayronman u jahannamdan. Voy, o'laman, ichim qonga to'ldi chog'i, holim yomon, begim, o'laman.

Risqul. Ha, Qoraxo'ja shu yo'lni tutdimi hali! Endi u mendan barimtaning qonli qasosib "qarimtan" kutaversin! Meni Risqulbek deydilar... (Qamchi siltaydi.)

Tangabeka. Qarimtaning ustiga qor yogdi deya-ver, Risqulbek! Molsiz qolibsang-ku yo noto'g'rimi?

Risqul. To'g'ri, to'g'ri. Suyunaver, sening kuning tug'di.

Tangabeka. Nega suyunay, axir, sening moling bilan meniki ham ketgandir.

Risqul. Moling ketsa, senga kelin qoladi. Mening na molim, na qizim qoldi. Eh, murtad Qoraxo'ja! Qoningni tomchilab to'kmasam, Risqulbek otim o'chsang, butun zotimga qirg'in kelsin!

Tangabeka. Demak, qarindosh bo'lishdan boshqa choramiz yo'q ekan-da?

Risqul. Yana sen yutding, boyvuchcha, yana aytganingni qilding!

Darvesh (o'zicha). Xm-m... taqdir o'yini avjiga chiqyapti...

Tangabeka. Ochig'ini aytsang, Zubarjadni o'z qizimday sevib qolganman. Qo'ldan chiqarib yuborgim kelmagandi. Ko'nglimga tortdi.

Risqul. Bu bilan dardim yengil tortmaydi. (Choparga.) Tezroq borib otingga min, odamlarni yig', u bosqinchini quvib boramiz, shoyad yetsak! Ey, otni olib kel!..

Chopar chopib chiqib ketadi.

Tangabeka. Oq yo'l, bek. Ishingni xudo o'nglasin.

Risqul. Qulluq, boyvuchcha! Fotiha ber, avliyo!

Darvesh (makkorona tabassum bilan pichirlab o'qib). Xudo o'z panohida asrasin, ollohu akbar.

Risqulbek shiddat bilan chiqib ketadi.

Tangabeka. Cho'ldagi yelni bostirib bo'psang, bek. Qirg'in daraxt boshida emas, odam boshida yuradi!

Darvesh. Mana, yana ikkimiz qoldik, boyvuchcha.

Tangabeka. Bir o'zim tanho qolsam, yanada yaxshiroq bo'lar edi, darvesh. Bir oz o'ylab, xayolimni yig'ib olay.

Darvesh. O'ylayver, men shoshmayman. Lekin xayrli ish haqida o'ylamayapsan. Oqyigit bilan Zubarjadni bir-biridan ayirib, erning vasiyatiga xiyonat qilyapsan. (Boshini egib chiqib ketadi.)

Tangabeka. Bu Darvesh hadeb gapni qayoqqa buraveradi, sira tushunmayman. Bizning g'am-tashvishimiz bilan uning nima ishi bor? Yoki qilayotgan bu ishlarim chindan ham rahmatli Elmirzaning vasiyatlariga xiyonatmi? Boshimizga bunday balolar kelishini kim bilibdi? Nazarimda meni xuddi ilon chaqqanga o'xshaydi. O'zimni qo'yarga joy topolmayman. Tangrim, nima qilish kerak, nima qilay?!

Pauza

Devona yugurib kiradi.

Devona. Boyvuchcha opa, boyvuchcha opa! Shunday Tol Qiviqqa yetishi bilan Risqulbekning oti munkib ketib, o'ldi-qoldi. Mana bunday yumalab, o'mbaloq oshib ketdi. (Yumalab ko'rsatadi.)

Tangabeka. Bek tirikmi?

Devona. Bek darrov sakrab turdi-yu, ot talab qildi. Yolchiquk bizning to'riq yo'rg'ani tutib, uni mindirib yubordi.

Tangabeka. Xayriyat, joni omon qolibdi bechoraning.

Devona. Bekning do'ppisi bir chaqirim yerga uchib tushdi, boshida mana bunday (mushtini ko'rsatadi) g'urra.

Devona. Tangabekaning yoniga kelib o'tiradi. Tangabeka uning boshini silaydi.

Devona. Boshimni silasang biram xush yoqadi, biram xush yoqadi. (Jilmayib.) Hamma vaqt shunday qilib tur, xo'pmi, boyvuchcha opa?

Tangabeka. Bir begunoh tirikkina jonsang, Devona, sen bilan so'zlashib o'tirsang o'zim ham yengil tortaman.

Devona. Meni erkalsang, yiglagim kelib ketaveradi. Yo'q, boyvuchcha opa, men yig'lamayman, men yig'lasam, sening ko'ngling buziladi.

Tangabeka. Yig'lama, Devonam, sening yig'ingsiz ham menga juda qiyin. Hamma yoq alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Nima bo'lishiga aqlim yetmay qoldi. (Devonaning boshini silaydi.)

Devona. Sen bilan ikkalamiz bo'lak yaylovga ko'chib keta qolaylik, boyvuchcha opa? Eshmirzani ham olib ketamiz. Mayli, Shafaq ham keta qolsin biz bilan! Mayli! Oqyigit bilan Zubarjadni ham qoldirib ketmaymiz, ikkalasi bu yerda qiynalib qoladi. Yolchiqukchi? U ham yaxshi odam, uni ham olib ketamiz. Darvesh anavi Risqul yayloviga ketaversin.

Tangabeka. Oh, Devona, qani endi sen aytanday osongina qutulib bo'lsa? Koshki, ko'rgulik va azoblarimiz bu yerda qolsa!

Hammasi orqamizdan quvib boradi.

Devona. Baroqni ham olib ketamiz, bo'lmasa suyaklarni kim kemiradi?..

Tangabeka. Hay, mayli. Ana, qimiz quyib ich!

Eshmirza. Chuh... qamish oyoq arg'umog'im, chuh! Oyi, oyi qo'ychi Boymat mendan, xotin olganingda sen uni nima qilasan, deb

so'radi. Menmi, men uni qamchi bilan boplab savalayman, dedim. To'g'ri aytibmanmi?
Tangabeka. Esingni yig', tentak, aljirama! Qamchi bilan xotin kaltaklaganni ko'rganing bormi?
Eshmirza. Ko'rganim bor, oyi. Anavi g'ilay Yilqiboy xotinini kunda qamchi bilan savalab, o'lasini qiladi.
Tangabeka. Odam emas, vahshiy ekan bo'lmasa.
Shafaq, uning ketidan Devona kiradi.
Shafaq. Chaqirdingmi, qaynanam?
Tangabeka. Chaqirdim; o'tir, hammanglar o'tiringlar. Sen, devona, eshitib, jimgina o'tir.
Devona. Xo'p bo'ladi, boyvuchcha.
Oqyigit. Oyi, sen bizni juda bemahalda to'plading, ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin.
Tangabeka. Ogohlantiraman, bu oqshom mendan yaxshi-xabar kutmay qo'ya qolinglar. Ixtiyorim o'zimdada emas.
Hamma tashvishda, bir-birlariga qarashadi.
Shafaq (o'zicha). Xudoyim, nahot o'ylaganlarim oldimga kelsa? Bir baloni sezyapman.
Tangabeka. Nimadan boshlashga ham hayronman. Bugun oqsoqollarni, ya'ni urug'larimizni hurmatga sazovor ulug'larini yig'ib, kengash qurgandik. O'yladik, kengashdik. Ha, aytganday, Zubarjad, Risqul ham kelib ketdi. Kengashib, fikrlashib ota-bobolarimiz udumini tutishga, o'tganlar taomiliga amal qilishga qaror qildik.
Oqyigit (hayajonda). Ota-bobolarimiz taomili, vasiyati men uchun muqaddas. Bizning fотиhamiz bor...
Tangabeka. Taomilimiz, qonunlarimiz avloddan avlodga o'tib kelgan ko'hna qonunlar, bolalarim! Undan o'tib hech qayerga borolmaymiz.
Oqyigit. Nima bo'ldi o'zi oyi, qiynamasdan tezroq so'zla!
Tangabeka. Akangning o'limi hamma yoqni ostin-ustin qilib yubordi, bolam. Ko'p umidlarimiz puchga chiqdi. Oqsoqollar eski udumimizni tutib, shunday qaror qildilar: Oqyigit, sen Shafaqqa uylanasan. Eshmirza, senga ana Zubarjad xotin bo'ladi. Akangizning qirqini o'tkazib, sizlarning to'yularingizga harakat qilamiz.
Hamma sarosimada.
Eshmirza. Menga xotin kerak emas, oyi, men uylanmayman. Ana Devonaga xotin kerak. Men hali tegishib aytdim, menga xotin kerak emas. (O'tovdan chopib chiqib ketadi).
Devona. Qo'y, qo'y meni, boyvuchcha, o'z xolinga. Menga xotin kerak emas, menga uylanish gunoh. Xotinsiz ham juda yaxshi uxlayman. Ana, ikkalasini ham Oqyigitga ber! Meni tinch qo'y, boyvuchcha opa! (Orqasi bilan yurib o'tovdan chiqadi.)
Zubarjad bilan Oqyigit hamon sarosimada, hayron.
Shafaq. Istanos os, istasang chopib tashla, qaynanam! Lekin meni bunday jafolarga giriftor qilma! Ilinib turgan bir kuzgi yetim yaproq singariman. Tegma, qaynanam, o'zim uzilib tushaman. Sen meni uch kishining ko'z yoshiga sabab qilma. Ko'z yoshi nimaligini men juda yaxshi bilaman! (Ho'ngrab yig'laydi.)
Oqyigit (qahqahlab kulib). Ey, onajon! Toshdan toshga, qoyadan qoyaga sakrab yurgan kiyikka: sen bunday qilma, deb kim buyruq bera oladi? Bu yerda unga qonun emas... faqatgina o'q hokim. Qo'ling borsa, ot bizni. Biz Zubarjad ikkalamiz bir jonmiz. Bizning taqdirimizni vasiyat va taomil bilan o'zlaring qo'shgansizlar!..
Zubarjad. O'lgunimcha sening quling, xizmatkoring bo'lishga tayyorman, boyvuchcha... Faqat bir iltimos, meni Oqyigitdan judo qilma, menga Oqyigitimni qo'y!
Oqyigit. Unday dema. Zubarjad, biz qul bo'lib emas, hur bo'lib yashash uchun dunyoga kelganmiz. Qul bo'lib emas, muhabbat, ahd-paymon asiri bo'lib yashash - bu buyuk baxt, Zubarjad! Oyijon, nahotki sen unutding otam so'zlarini? U hamisha, "Hurlik-baxtiyorlik" der edi". Xo'sh, nega jim bo'lib qolding? Ayt, oyijon, sen bizning iroda va sadoqatimizni sinab ko'rmoqchi eding, shundaymi?
Tangabeka. Yo'q, bolalarim, sizlar sinovdan o'tgansizlar. Xudoyi taoloning xohlagani boshqa ekanu, biz shoshib osiylik qilib qo'ygan ekanmiz, bolalarim. Taqdirning yozganiga bo'ysunmay ilojimiz qancha?
Zubarjad (Tangabekaning oyog'iga yiqilib). Bizning taqdirimiz sensan, boyvuchcha! Sen kuchli odamsan, har nimaga qodirsan, bizlarni bir-birimizdan judo qilma!
Oqyigit (Zubarjadni o'rnidan turg'izib). Tur o'rningdan! Bizning tiz cho'kib kechirim so'rarlik nima gunohimiz bor, Zubarjad? Bizni tug'ilishimiz qovushtirgan, faqat o'limgina bir-birimizdan judo qilishi mumkin!
Tangabeka. Tangrimning qudrati cheksiz.
Zubarjad. Unday bo'lsa, nega uning qudrati faqat yozuzlikda cheksiz ekan, boyvuchcha?!
Tangabeka. Tavba deb gapir, Zubarjad. Bu so'zlaringning turgan-bitgani gunoh!
Zubarjad. Bir ildizdan ko'karib chiqqan qo'shaloq niholni tomiridan qirqib ajratish gunoh emasmikkn, boyvuchcha! Bizning ko'z yoshlarimiz nahot sening bag'ringni qon qilmasa, boyvuchcha! Buncha qahring qattiq!
Oqyigit. Ona, agar sen bizni shunday judolik dog'iga tashlaydigan bo'lsang, bergan oq sutlaring harom bo'ladi! Yo'q, yo'q, ona!
Oyoq-qo'llarimizga temir kishan solsang solginu, ammo dillarimizni ozod qo'y!
Tangabeka. To'lqin daryodan chiqib ketmaydi, o'g'lim, qirg'oqqa urilib yana iziga qaytadi. Taqdir daryosining qirg'oqlari baland va serqoya. Undan hech kim hatlab o'tgan emas!
Oqyigit. Mana, biz taqdir daryosi to'lqiniga botmay, undan hatlab o'tamiz.
Zubarjad. Hammasi sening qo'lingda, boyvuchcha!
Tangabeka. Men taqdir quliman, taomil, urf-odat quliman. Mgning erkim o'zimdada emas.
Oqyigit. Oh, bu qullik! Banda bandaga qul, qonunga qul, taomilga qul! Qul, qul, qul! Odamlar o'zlariga qonun o'ylab chiqaradilar-da, o'la-o'lguncha o'sha qonunning quli bo'lib yashaydilar. Qul, qul! Odat va zaiflik quli, go'llik va hirsiyat quli! Insonning biri shuhratparastlik quli bo'lsa, ikkinchisi molu dunyo quli! Uchinchisi nodonlik quli bo'lsa, yana biri yovuzlikka qul! Nima uchun shunday? Nima uchun har bir tirik jonni behuda tamoil ra urf-odat go'riga tiqasizlar? Bilaman, el-urug'imizning odat va taomiliga ko'ra men Shafaqqa uylanishim kerak. Bunga na Shafaq, na men rozi axir! O't bilai suv qanday qovushsin?!Tangabeka. Bizda ixtiyor yo'q, bu Ollo-taoloning xohishi.
Shafaq. Bizning zorimiz, iltijolarimiz nega uning qulog'iga yetmaydi. U shuncha uzoqdami?
Oqyigit. Ollohning qulimiz! Ammo o'zimiz o'zimizga qul bo'lib yashaymiz. Men hurmat qiladigan Oqmon shoir shunday degan edi:
Qullar bo'lib yashashdan ham qullik yomon,

Yerimizda qullar bitar biron zamon.

Qullar bitar! Ruhimizga podsho bo'lib,

Dilimizga taxtin qurib qolar hamon...

O, ruhlarni kishanlagan qullik yomon!..

Tangabeka. Oqmon shoirni eldan badarg'a qilganlarini ham unutm, o'g'lim!

Oqyigit. Shoirmi eldan badarg'a qilishga, yurtdan haydab chiqarishga yovuzlarning kuchlari yetadi. Lekin uning qo'shig'ini ham, ruhini ham quvib chiqarib bo'lmaydi eldan!

Tangabeka. Urug' unga la'natlar o'qidi.

Oqyigit. Yo'q, urug' yovuzlariga, johillariga u la'nat o'qib ketdi.

Tangabeka. Mana, oz emas, ko'p emas, ellik yillik umrimda ko'pni ko'rdim, o'g'lim. Lekin taomilni oyoq osti qilgan biron qulning xudo g'zabidan omon qolganini hali ko'rganim yo'q. Men buni juda yaxshi bilaman. Shuning uchun butun tashvishu harakatim - sizni shu halokatdan himoya qilish.

Oqyigit. Himoya qilma, ona, bizni bir-birimizdan judo qilishning o'zi halokat qa'riga otishdir.

Shafaq. Men misoli miltillab yonayotgan bir shamman, qaynanam. Yo'lmirzam haqqi, uning ruhi hurmati meni o'z holimga qo'y.

Erim dog'ida o'zim yonib, o'zim so'nayin. O'tinaman, qo'y, meni o'z holimga!

Tangabeka (jahl bilan). Tiling chiqib qolibdi deyman, kelin? Haddingdan oshma! Seni urug' poda-poda mol berib olgan. Sening xo'jang ham urug' bo'ladi. "Sevgi, sevgi" deysan hammang. Mana, Yo'lmirza bilan sevishib qovushdilaring, baxting ko'pga bordimi? Muhabbatning turgan-bitgani hasrat.

Shafaq. Muhabbatning hasrati ham men uchun lazzat!

Tangabeka. Yetar, gapni bas qillaring endi!.. Qiyomatda xudo oldida men javob beraman. Qaror bitta: oqsoqollar qanday hukm chiqargan bo'lsa, shunday bo'ladi! Hademay hammangiz ham taqdirga tan berib ketasiz.

Zubarjad. (Oqyigitning chehrasiga boqib.) O, tangrim, bu ne hol, Oqyigit? Nega chakka sochlaring birdan oqarib ketdi? Yo xudoyim!..

Oqyigit. Qulluq, ona, ming rahmat! Shu daqiqalar ichida sen meni o'ttiz yoshga ulg'aytirding. Aqlimni tiniqtirding. Hozir men yigit emas, ko'pni ko'rgan er kishi bo'lib senga aytar so'zim bor. Men Zubarjadsiz bir kun ham yashay olmayman. Jonimiz ham, tanimiz ham bir yerda bo'ladi. Butun sevgan urug'im meni la'natlash emas, oyog'imga yiqilib yolvorsa ham, aytganimdan qaytadigan emasman. Men muhabbatim bilan o'zimni juda qudratli his qilyapman, ona! Sen butun dunyoni qorong'ilikka ko'mding, mana shu qorong'ilikda men uchun birgina yulduz - Zubarjad yarqirab turibdi. (Zubarjadning ko'lidan ushlab Tangabeka oldiga keladi.)

Bizga bergan fotihangni takrorla, onajon!

Zubarjad. Men Oqyigitisiz bir kun ham yashay olmayman. Men so'nggi nafasimgacha Oqyigitnikiman, boyvuchcha! Bizni qovushtirgan fotihangni takrorla, bo'lg'usi qaynanam! Takrorla fotihangni, bo'lg'usi onajonim!

Tangabeka. Men fotihamni takrorlash uchun emas, qaytarib olish uchun chaqirtirdim sizlarni! Mana, ko'z oldingizda olaman uni.

Oqsoqollarning hukmi hukm! Bugundan boshlab bir-biringiz bilan ko'rishishingizga men rozilik bermayman!

Oqyigit. Sen Quyosh nuridan mahrum etsang, ona, bizning yo'limizni oy nuri yoritadi, baxtimizga panoh bo'ladi! Yur, Zubarjadim, ketsk!

Oqyigit bilan Zubarjad chiqadi.

Tangabeka. Kunimiz serqayg'u, ertamiz qorong'i!

Shafaq (sahroga termilib). Hamma yoq simsiyoh, qora tuman qoplagan atrofni... (Keta boshlaydi.)

Tangabeka. Bir oz sabr qil, Shafaq, ketma.

Shafaq. Ovqat pishirishim kerak.

Tangabeka. Ulgurasan. Gap bor.

Shafaq. Aytilmagan nima qoldi, qaynanam?

Tangabeka. Qaynana-kelin bo'lib emas, ikki teng ayol bo'lib gaplashaylik.

Shafaq. Darajamiz teng emas-ku, qaynanam.

Tangabeka. Hamma xotinlar bir xil, Shafaq. Men ham bir vaqtlar yosh bo'lganman.

Shafaq. Sen hozir ham qari emassan!

Tangabeka. Sen endigina daraxtdan uzib olingan yetuk mevasan, Shafaq! Zaha bo'lmagan, sharbatga to'lib, tirsillagan meva!

Chiroylisan, qaddi-qomating kelishgan juvonsan. Sening chekingga yigitlarning sarasi tushdi. Menga qancha og'ir bo'lishiga qaramay, senga maslahatim shu: fursat g'animatligida o'zing haqingda o'ylab qol.

Shafaq. Yoshligimni urib ketdi qora garmsel.

Tangabeka. Men ham sevgi lazzatiga to'yib qonmay bo'lib qoldim tul. Necha marta o'ldirmoqchi bo'ldim o'zimni. Lekin hayot ustun chiqdi. Inson hamma narsaga ko'nikadi.

Shafaq. Men ko'nika olmayman, bardoshim yetmaydi.

Tangabeka. O'zingni ko'niktir, Shafaq, Oqyigitga ko'ngil ber, boshqa ilojimiz yo'q! Oy bulutlar chodiriga kirganda sen ham sekin uning oq o'toviga kir!

Shafaq. O, qaynanam, xudodan qo'rq, meni yomon yo'lga yo'llashdan! Men unday xiyonatni xayolimga ham keltirolmayman.

Birovning baxtini o'g'irlab kishi baxtli bo'ladimi? Zubarjadning ko'z yoshi kimni tutadi?

Tangabeka. Zubarjad haqida biz o'ylaymiz, sen o'zingni o'ylayver!

Shafaq. Yo'q, men bu yo'lga yurmayman, qaynanam! Men o'z oyog'im bilan uning oq o'toviga kirib borolmayman. Meni bu sharmandalikdan qutqar! Men gunohdan qo'rqaman. Anavi Darvesh allaqanday yovuz nazar bilan meni kuzatib yuradi. Qayerga borsam, o'sha yerda u...

Darvesh kiradi.

Darvesh. Kechki ibodatni ham ado etib keldim, boyvuchcha... Nimagadir hamma yoqni quyuq tuman bosib kelyapti, bamisoli qora bulut! Ishqilib yaxshilikka ko'rinsin!

Tangabeka. Qora tuman xayrlik keltirmasligini paygambar elchisi bilsa kerak?!

Shafaq sezdirmay chiqib ketadi.

Darvesh. Yer gunohga to'lib-toshgan, boyvuchcha!

Tangabeka. Yerda bandalar yashaydi. Banda bo'lgan joyda har narsa ham bo'ladi.

Darvesh. Xo'sh, boyvuchcha, yoshlarni ko'ndira oldingmi?

Tangabeka. Men ularga urug'ning hukmini aytdim, ko'nish-ko'nmaslikka ularda ixtiyor yo'q.

Darvesh. Shunday degin...

Tangabeka. Shunday... Men senga anchadan beri aytmochi bo'lib yurgan edim. Sening qiliqlaring meni borgan sari hayratga solib qo'yyapti. Avliyo bo'lsang ham, boshqa bo'lsang ham, o'zingga, biz uchun sen begonasan... Balki...

Darvesh. Nima "balki?"

Tangabeka. Balki ketarsan deyman... Sensiz ham hayotimiz notinch. Nima istasang shuni ol-da, jo'nab qol!

Darvesh. Menga mol kerak emas, menga bir qarorgoh kerak. Jahon kezib charchadim, qo'nim kerak.

Tangabeka. Unday bo'lsa, o'zingga bir qarorgoh izlab topgin!

Darvesh. Bir umr izlagan qarorgohimni topdim, boyvuchcha, jahongashtalikka alvido dedimu, keksaligimni sening qarorgohingda o'tkazishga keldim.

Tangabeka. Bu yerning bekasi men! Mening qarorgohimda sening rizqing tugadi, endi yo'lingga ravona bo'!

Darvesh. Qulluq, boyvuchcha. Lekin men bir daydi it emasman, oldimga bir suyak tashlab, aldab, haydab yuborsang. Fahmladingmi?

Tangabeka. Nimalar deyapsan o'zing? Hech narsa tushunmayapman.

Darvesh. Tushunmasang, tushuntirib qo'yaman.

Tangabeka. Yo'q, tushuntirmay qo'ya qol, kerak emas. Ammo ket bu yerdan. Nima kerak bo'lsa shuni olginu, ket!

Darvesh. Keragini albatta olaman, boyvuchcha, lekin ketmayman. Negaki, ketish uchun kelgan emasman!

Tangabeka. Yo'q, ketasan! Mehmondo'stligimni ko'rding, lozim bo'lsa qahrimni ham ko'rib qolarsan! Yaxshisi, nima kerakligini ayt, buyuraman, hozir berishadi!

Darvesh. Menga Shafaq kerak, boyvuchcha. Shuni ber. Men qolgan hayotimni shu yerda, Shafaq bilan o'tkazaman... Ha, nega o'qrayasan? Men hali qariganim yo'q, endi ellik beshga kirdim.

Tangabeka. To'xta, to'xta! Bu kuyov alahsirashini o'ngimda eshityapmanmi yo tushimda? Haligi avliyo Darvesh senmasmiding?

Darvesh. Avliyolikni tark etganimga ko'p bo'ldi, boyvuchcha. Bu gunohkor yerni tarki dunyo qilib, o'zimni din, xudo yo'liga bag'ishladim. Dinu imon, ro'zai ramazon, toatu ibodat qildim, haqiqat istab, nima topdim? Xulyo topdim, xulyo! Hammasi riyo, hammasi behuda gap, boyvuchcha. Nimaga sajda qildim, nimaga topindim? Qo'sha-qo'sha xotin quchib, oltin saroylarda bu dunyoning rohatini ko'rgan oliy zotlar imonining salomatligi uchunmi?

Tangabeka. Xudo seni oxiratda o'zi yorlaqaydi.

Darvesh. Oxirat hozir yer ustida, boyvuchcha! Oxiratning jannati ham, do'zaxi ham - Shafaq! Uni ko'rdimu, dindan chiqdim, imondan ayrildim, boyvuchcha. Mevasiz daraxt va uyasiz qush singari so'qqabosh bo'lib dunyodan o'tib ketayotganimga afsuslanib qoldim. Shafaq meni ko'kdan yerga tushirdi. Menda yerning nozu ne'matlaridan, rohat va lazzatlaridan bahramand bo'lib yashash ishtiyoqini uyg'otdi. Yoz quyoshi botayotganda ham yonib botadi... Muzlab qolayotgan qonim tug'yonga kelib, mudroq hirsu havaslarim isyon ko'tarib, menga omon bermayapti. Men ko'milgan vulqonga o'xshayman, boyvuchcha! Menga Shafaqni ber! Bugunoq, hoziroq ber uni menga!..

Tangabeka. Ey, aqldan ozmadingmikan, Darvesh, esingni yig'!

Darvesh. Esimni yig'ib olganim uchun o'zimga tegishligini talab qilyapman, boyvuchcha.

Tangabeka. Hoziroq ket bu yerdan, darvesh, bo'lmasa tumonatni boshingga to'playman, qamchi ostida qolasan.

Darvesh. Po'pisangni qo'y, boyvuchcha, men qo'rqmayman. Hayot o'z qamchisini qattiq bosgan menga. Qara-ya, odamlarga imon tarqatib yurgan odam, bu yerga kelib imondan chiqib qolsa. Imonsiz odam qo'rqoq bo'lmaydi.

Tangabeka. Yana bir so'z deydigan bo'lsang, oyoq-qo'lingni bog'latib, cho'lga chiqarib tashlataman, och bo'rilar yem bo'lasan.

Darvesh. Tashlatishdan burun bir hikoya eshit... Bu bo'lgan voqea.

Tangabeka. Kerak emas hikoyang, hikoya eshitadigan bo'lib o'tirganim yo'q.

Darvesh. Hikoyam juda qiziq... ko'ngling ochiladi.

Tangabeka. Kerak emas...

Darvesh. Ixtiyoring... Bundan o'ttiz yillar chog'i muqaddam... ha, o'ttiz yil bo'lishi kerak.

Tangabeka (o'zicha). O'ttiz yillar...

Darvesh. Olislardagi yaylovlardan birida eri urushga ketgan chiroyli bir yosh juvon bo'lgan. Chiroyli juvon boshida eri bilan o'tgan shirin ishqli tunlarni, quvonchli kunlarni eslab sog'ingan, yuraklari intilgan... Otilib chiqqan chashma o'z oqimiga yo'l topadi, deydilar. Qo'shni qarorgohdan kelib-ketib yurgan kelishgan bir yigitga juvon oshiqu beqaror bo'lib qoladi. Shunday qilib, hislar to'fonida mast juvon o'ynash orttiradi. Yigit necha bor oq o'tovga kirib chiqadi - bo'sag'adan boshqa hammaga sir. Kunduzlarni eri xayoli tuzog'ida, tunlarni yigit quchog'ida o'tkazadi bu juvon... Oradan yil o'tmayoq xufiya uchrashuvlar o'z mevasini in'om qiladi - o'g'il bola dunyoga keladi. Bu sirdan yerda kindik kesgan doya kampiru ko'kda hayron chaqnagan yulduzlarga voqif bo'ladi. Lekin sir ham qil ustida edi - bolani nima qilishlari, qayoqqa yashirishlaryani bilmasdilar... Xudoning marhamati keng, boyvuchcha... Xudo bandasiga beraman desa, ulushini yo'liga tashlab qo'yar emish. Shu bola tug'ilgan kunda yaylovda qo'lida hassa, yuragida g'ussa bir yosh darvesh o'tib qoladi. Xudoning mehribonligiga qara... Doya kampir darveshning yo'lini to'sadi. Qo'rqa-pisa bo'lgan sirni aytib: tilaganingni so'ra, mol deysanmi, oltin deysanmi - qancha xohlasang ol. Lekin mushkulimizni oson qil, bizni balodan qutqar, deydi. Bolani olib cho'lga ket, ertalab qaytarib kel, kelganingni hamma ko'rsin. Keyin xalqqa: chet yaylovdan shu bolani topib oldim, degin. Xalq senga bolani katta o'tovga bekning xotini oldiga olib borishni maslahat beradi, deydi kampir. Darvesh yigit doya kampirning hamma aytdanlarini bajo keltiradi. Bolani darhol podachining emizikli xotiniga beradilar... Darvesh va'da qilingan pulu oltin, qo'yu otlardan kechib, faqat mudhish sirni ko'ngliga ko'madi-yu, hu, deb jo'nab ketadi... Mana, bor hangama... Ha, nima bo'ldi, boyvuchcha, ranging o'chib ketdi?

Tangabeka. Ha, jahongashta odamlarning ertagi shunaqa ko'p bo'ladi.

Darvesh. Esimda... haligi buzuqning ismi Tangabeka edi... Hali ham darveshning qulog'ida o'sha ism jaranglab turibdi.

Tangabeka. Ha, saholarda bunaqa ismlar juda ko'p uchraydi.

Darvesh. Arzimasana yana bir narsani ayta... Usha go'dakning manglayida katta xoli bor edi. Xuddi sening Devonang peshonasidagiga o'xshagan... O'tmishingdan qochib, boshqa dargohlarga ko'chib ketibsan. Ammo o'tmish ko'zga ko'rinar-ko'rinmas bo'lib kishining izidan yuraveradi, boyvuchcha! Mana, men ham topib keldim izingdan...

Tangabeka. Hassang bilan birga qo'shib xudo ursin seni, Darvesh! U vaqt yovuz iblis bo'lib chiqdi. Shu iblis kelib endi mendan

tozon talab qilyapti. Olmay ketgan oltin o'rniga - yosh xotin emish! Mening o'z ko'rgan azoblarim kammidi?! Bir gunohga ming jazo... bo'yimda ekanida kunduz odamlardan yashirilib, tunlarni iztirob va ko'z yoshida o'tkazib, aqldan oza yozgan edim. Shuning uchunmi, bolaning esi past bo'ldi. O'ttiz yildan beri unga qarab xufiya iztirob chekaman. Yashirin lazzatning ne'mati juda achchiq keldi menga.

Darvesh. O'kin, boyvuchcha, o'kin. Keyingi pushaymon o'zingga dushman, deydilar.

Tangabeka. O'kinaman. Shu gunohim uchun xudo meni qirqqa yetmay tul qoldirdi. Mana endi o'g'limni tortib oldi. Qahri g'azabiga duchor qildi xudo. Qani ayt-chi, Darvesh, dunyo tarozisining mezoni bormi yo yo'q? Haqiqat qayoqda?!

Darvesh. O'kin, boyvuchcha, o'kin! Mana men shu o'ttiz yil gunoh qilmaganimga o'kinaman. Sevgidan qo'rqdim, xotinlar bilan aysh-ishratdan hazar qildim. Xullas, bu dunyoning lazzatidan bebahra yashadim... Yigirma besh yil avval Bag'dodda bir davlatmand savdogar meni kuyov qilmoqchi bo'ldi. Men u dunyoning jannatini bu dunyo lazzatiga alishtirmadim. Hozir pushaymonman!.. Yaqindagina, bundan o'n yil muqaddam bir tul dahri xotin meni uvallo o'z quchog'iga tortdi - tob berdim, yaqiniga yo'lamadim. Endi achinaman! Undan keyin Buxoroda... Saroylida... O'kinaman, boyvuchcha, hayot chaqirig'iga kar-ko'r yashaganim uchun o'kinaman! Lekin befoyda!

Tangabeka. Sen odam emassan, iblissan, devsan!

Darvesh. Iblis bo'lsam juda qudratli bo'lar edim. Men bo'lsam zaif, ayanch bir darveshman... O'ttiz yildan beri mudrab yotgan iblis mana bugun uyg'ondi, sarflanmagan kuchim, alanga olmagan cho'g'im bugun yurak-bag'rimni yondiryapti.

Tangabeka. Sovush top, darvesh, endi yonib qayoqqa borar eding.

Darvesh. Rost aytasan, men lazzat oladigan hayot daraxtining mevalari ancha siyraklashib qolgan. Shunday bo'lsa ham o'z ulushimni olmay qo'ymayman. Eng oxirgisi bo'lsa ham uzib olaman mevamni. Bo'yim yetmasa, shoxini sindirib olaman!

Tangabeka. Naqadar mudhish vabosan, darvesh!

Darvesh. To'g'ri aytasan, boyvuchcha, sening taqdiring mening qo'limda. Hamma sirlarning kaliti - Shafaq. Shafaqni menga qoldirsang, olam guliston!

Tangabeka. Yo'q, qasamyod qilib aytamanki, uni senga bermayman! Butun bir urug' sha'niga isnod keltirasan! Yo parvardigor, o'zing madad ber menga!

Darvesh. Xudo oh-zoringni eshitmaydi, buni men yaxshi bilaman. Odamlarning o'zlari bir-birlarini jazolaydilar. Sening jazong - mana men! O'sha vaqtda oltiningni olmagan edim, boyvuchcha, qarzingni to'la!

Tangabeka. Yo'q, darvesh, bir gunohimni yuvish uchun yana gunoh qilishni xohlamayman! Ket, bu yerdan, tezroq ket!

Darvesh. Men ketmayman. Agar tanballik qilaversang, boshingga tumonat urug'ingni yig'ib, seni yer bilan yakson qilaman.

Dalilim - ana, Devona!

Tangabeka. Qancha yovuz bo'lsang ham vahshiylik qilmassan! Har holda sen er kishisan-ku, axir?!

Darvesh. Men hozir hech kim emasman, na farishta va na iblis! Men uchun muqaddas hech narsa yo'q! Menga Shafaqni ber, bo'lmasa sharmanda bo'lasan, eski o'kinchlarimga yangi pushaymon tuz sepadi.

Tangabeka. Qo'y, qo'rqitma meni, darvesh, men qo'rqinchlarning ichidan butun chiqqan odamman. Lekin men hozir o'zimni emas, bolalarimni o'ylayapman. Taomilni oyoq osti qilishsa, xudoning g'azabiga uchraydilar. Tirik ekanman, men bunga yo'l qo'ymayman. Bor, el oldida meni fosh qilsang qilaver! Lekin bir narsani unutma! Men qattiqqo'l va toshbag'irman.

Darvesh. Yo'q, qo'rqib kettaningdan shunday deyapsan, boyvuchcha, qo'rqasan...

Tangabeka. Men hozir sendan zarracha ham qo'rqmayman. Terisi shilingan bo'ri qo'rqinchli bo'lmaydi.

Darvesh. Ko'p kutdim, endi ozi qoldi. Lekin shuni unutma, boyvuchcha, sen mening ko'lankamsan. Men qayoqqa borsam, o'sha yoqqa o'rimalaysan. Sening o'zingning na taning, na joning bor! Hozircha xoli qoldiraman, lekin xotirjam bo'l, Shafaqni olmaguncha qo'ymayman. (Chiqib ketadi.)

Tangabeka. Yo rabbiy, qanday mudhish haqiqat bu?! Boshimga ne balolar yopirilib kelyapti? (Osig'liq yoy bilan o'qni ko'rib.)

Mana bu o'qlarning hammasi menga o'qtalgan! Ana, ana yoyi tortilyapti... (Orqaga chekinadi.) Tortil, tortil! Mening yuragimga qadal! Qadal mening yuragimga! Qandayin dahshat bu! Meni qanday qilib yer ko'tarib yuribdi ekan, xudoyim!.. Ey, odamlar!.. (Qichqiradi, ammo shu zahoti qo'li bilan og'zini berkitib, o'rindiqqa yiqiladi.)

Uchinchi Parda

Shafaq bilan Oqyigit ning o'tovi. Oqshom tushmoqda. Uzoqdan "Zulhijja" kuyini xotirlatadigan mungli kuy eshitiladi. O'tovda Oqyigit bilan Shafaq.

Shafaq. Uzoqlarda yurakni ezadigan biram mungli kuy quyilyapti.

Oqyigit. Bizning yetim yuraklarimiz yig'layapti. Sarson-sargardon qilishdi sho'rli yuraklarimizni!..

Shafaq. Qismat deydilar. Peshanamiz sho'r ekan!

Oqyigit. Yo'q, peshanaga, yozmishga yo'yib, aslinda odamlar o'z hukmlarini o'tkazadilar.

Shafaq. O'zimni girdobga otsam ham omon qoldim-a, ana u Yolchiqul qutqarmasa, ko'lga botardimu, qutulardim bu dunyoning tashvishlaridan. Qayoqdan paydo bo'la qoldi u Yolchiqul?..

Oqyigit. Sen o'zingni o'ldirganing bilan bir baxtiyor bo'larmidik? Sen tushgan qabrning sovuqligi bizni isishga qo'yarmidi? Ming rahmat Yolchiqulga!

Shafaq. Sho'rli Zubarjadning kecha-kunduz tortgan oh-zorlarini eshitib, shunqor yigitning qanoti qayrilib borayotganini ko'rib turib yashash osonmi, Oqyigit? Shundoqqina surating qoldi...

Oqyigit.

Suyganimni oldilar,

Jonimga o't soldilar.

Ko'kragim to'la tutun,

O'ti so'nib kul qoldi,

Kunduz so'lib tun qoldi,

Toleim buncha zabun?

Dil kishanin olinglar,

Qo'llarimga solinglar,
Qo'ying, yuragimni hur!!

Shafaq. Uzoqlarda yurakni ezadigan biram mungli kuy qo'yilyapti...
Oqyigit. Zubarjadga qo'shilib butun sahro yig'layapti.
Tinglashadi.

Pauza.

Shafaq. Mana, er-xotin bo'lib bir o'tovga kirganimizga ham uch oy bo'lyapti, Oqyigit. Lekin ko'zlarining nurlari hali biron tunimni yoritgani yo'q.

Oqyigit. Kechir, Shafaq, nima qilay?!..

Shafaq. Bundan bu yoq ham shu bo'larmikan qismatim...

Oqyigit. Umr bo'yi... Lekin umr uzoq bo'lmas.

Shafaq. Mening ham tanamda jonim, tomirimda yosh qonim bor... Uch oy... Nahot uch oyda aqalli uch marta yostig'imga bosh qo'ymasang?..

Oqyigit. (Shafaq yoniga o'tirib, boshini silaydi.) Kechir meni. Ixtiyor menda emas, Shafaq, ixtiyor yuragimda. Yuragim o'zganing yostig'i tepasida pirpirab yuribdi.

Shafaq. Baxtli bo'lsin, desalar, otimni Shafaq qo'yarmidilar. Oqshomgi shafaqday bir yarqirab so'nsin, degan ekanlar...

Oqyigit. Er bo'lib seni erkalab yupatishga tayyorman, ammo qanday qilib! Qay so'z, qaysi ko'ngil bilan? Kechir, xotin... o'zinning ham ichim tutun, ustim butun.

Shafaq. Ehtimol, taqdirga tan berish kerakdir?.. Bizdaylar oz bo'lganmi dunyoda?..

Oqyigit. Taqdirga tan berib ham ko'rdik, yangam ikkimizni ikki qo'ziday bir o'tovga qamadilar. Men ham ko'nikib ketaman deb o'yladim, bo'lmadi. Muhabbat mendan ustun keldi. Kechir, Shafaq, sen juda go'zalsan, lekin men Zubarjadniki, o'shanikiman!

Shafaq. Mening zarracha ham ulushim yo'qmikan senda?

Oqyigit. Yurakni ulushlarga bo'lib bo'lmas ekan, Shafaq. Achchiq bo'lsa ham haqiqatni aytdim senga, kechir meni!

Shafaq. Oh, Oqyigit, aytmasang ham hammasini bilaman.

Oqyigit. Nimani bilasan?

Shafaq. Butun tunlaringni u bilan birgalikda oppoq nurli saharga ulaysan.

Oqyigit. Nima, ta'qib qilib yurasanmi?

Shafaq. Ta'qib qilmayman seni, Oqyigit, ko'nglim sezadi. Tunlar bo'yi mijja qoqmay chiqaman. Xotin bo'lganimdan keyin erim o'z tunlarini qayoqda o'tkazishini bilmaymanmi? Lekin ehtiyot bo'l, Oqyigit, keyingi kunlarda urug' orasida sizlar to'g'ringizda gap-so'z yuribdi.

Oqyigit. Agar Zubarjadim bo'lmasa, senga eng sadoqatli er bo'lar edim, Shafaq. Boshingdan tirnog'inggacha aql. Nima qilayki, men seniki emas!

Shafaq. Sen meniki emas... shuning uchun ham xotin bo'lib erni rashk qilishga haddim sig'maydi.

Oqyigit. Bizdan ranjima, Shafaq, bizga ham qiyin!

Shafaq (xo'rsinadi). O, qani, endi ranjishga haqqim bo'lsa! Mening hech nimaga, hech narsaga haqqim yo'q!.. Umuman, hech narsam yo'q mening!.. (Yig'laydi.)

Oqyigit. Yig'lama, Shafaq! Bizning zoru fig'onlarimizni ko'kdagilar baribir eshitmaydi, ko'z yoshimizni ko'rishmaydi... Qani endi, urush boshlanib qolsa-yu, keta qolsam, birdaniga hammamiz bu jafolardan qutular edik...

Shafaq. Oh, unday dema, jonim, yov chiqmay hasratda o'tsin! Sen juda keraksan bizga, Oqyigit, mening qora baxtim!

Oqyigitning ko'kragiga boshini qo'yadi.

Oqyigit. Ikki o't orasida kuymoq o'limdan ham og'ir, Shafaq. Seni yupatishga so'z topolmayman, aqlligim, nima deb seni yupatay?

..
Yolchiqu! kiradi. Oqyigit bilan Shafaqni bu suratda ko'rib shoshib qoladi.

Yolchiqu! O'tovingizga ahillik, hamjihatik doriganini ko'rib xushvaqt bo'ldim, xushvaqtlik arimasin!

Oqyigit. O, Yolchiqu! og'ay! Kel, qadrdon, kel! Yaxshi kelding. Shafaq, mehmonga qimiz olib kel!

Shafaq. Hozir keltiraman. (Mehmonga po'stin to'shaydi.) O'tir, Yolchiqu! og'ay.

Yolchiqu! Men qulingizni faqat bir o'tovda odam sanab mehmon qilardilar. O'sha o'tov mana shu. Rahmat sizlarga, ming rahmat.

Oqyigit. Sen qul emas, mana bizlar qul, Yolchiqu! og'ay.

Yolchiqu! Hammamiz ham qul, ukalarim. Qullik mana bu yerimizni (ko'kragini ko'rsatadi) bosib yotibdi. (Shafaq qimiz olib kelib unga uzatadi. Qimiz ichib.) Rahmat, Shafaq, baraka top. Yuzingga qizil yugurib, uyingga baxtiyorlik doriganidan xursandman.

Shafaq. Bizga atalgan baxtiyorlik Qof tog'ining orqasida emish, Yolchiqu! og'ay!

Yolchiqu! Keladi. Shafaq, mavridi bilan keladi. Ikkingizni juft ko'rib, quvondim.

Shafaq. Bizni quvonch emas, qayg'u yaqin qiladi, baxt emas, hasrat juftlaydi, og'ay.

Oqyigit. Zorlanganing bilan zor nari ketmaydi, Shafaq!

Yolchiqu! Bir ish bilan kelgan edim, o'tovingizga bunday ro'shnolik bilan qut darigan ekan, aytmay keta qolaman.

Oqyigit. Gapiraver, Yolchiqu! og'ay. Bizning o'tov - o'sha-o'sha, unda na qut bor va na o't!

Shafaq. Qut bilan o't ham Qof tog'ining orqasida emish, Yolchiqu! og'ay...

Oqyigit. Gapir gapingni, Yolchiqu! og'ay, nima demoqchi eding?

Yolchiqu! Shafaq eshitarlik xushxabar emas, balki Shafaq...

Oqyigit. Shafaqdan yashiradigan sirim yo'q, so'zlayver!

Shafaq. Men qora o'tovga chiqib tura qolay!

Oqyigit. Chiqma, Shafaq. Qancha og'ir gap bo'lsa ham bizning ko'rgulikdan mudhish emasdir.

Yolchiqu! Onang uch oydan beri o'tovdan chiqmaydi.

Oqyigit. Kasal emasmi?

Yolchiqu! Kasal ham emas, sog' ham. Oldiga bir kirib chiq!

Oqyigit. O'zi chaqirmaydi-ku!

Yolchiqu! Chaqirma sen kir, u - ona axir senga.

Oqyigit. Hammamizning qaddimizni bukib qo'ydi... Ha, gapning uchini chiqardingu naryog'ini aytmayaisan, Yolchiqul og'ay!
Yolchiqul (Shafaqqa uzr so'raganday bir qarab). Ilonga o'xshab hamma yoqda sovuq gaplar o'rmalab qoldi, Oqyigit, hamma gap sen bilan Zubarjad ustida. Oqsoqollar g'azabga mingan. Nikohni buzib, nomahram bilan ko'ngilxushlik qilyapti deb, ikkalangizning boshingizga la'nat yog'dirishyapti.

Oqyigit. Meni la'natlashga faqat birgina odam haqli - u ham bo'lsa - Shafaq! Boshqaning la'nati bir pul menga.

Yolchiqul. Ular el otalari, Oqyigit, so'zlariga quloq solmay bo'ladimi?

Oqyigit. Hamma oqsoqoldan menga Zubarjad muqaddas!

Yolchiqul. Yil yomon kelayotganga o'xshaydi. Yut, ocharchilik yaqin emish... Oqsoqollar hammasini sizlarga yo'yishyapti.

Shafaq. Bu gaplar Oqyigitning oq ko'ngliga tuhmat! Elga ofat keltiradigan qanday nojo'ya ish qildi?

Yolchiqul. Buning ustiga, anavi Darvesh ukkiga o'xshab hurpayib urug' orasiga g'uluv solib yuribdi. Gunohga botganlarni eldan haydamasangiz, o'lat bosadi, deb vahimaga solyapti xaloyiqni.

Shafaq. Nima uchun boyvuchcha u daydining sharmandasini chiqarib, haydab yubormaydi?

Yolchiqul. Hamma shunga hayron. Butun elatni zir titratgan boyvuchchani bir darbadarga kuchi yetmay o'tirsa.

Oqyigit. Oyimning bir til qisiqligi borga o'xshaydi.

Yolchiqul. Xunuk xabar bilan ta'blaringni xira qildim, kechiringlar meni.

Shafaq. Xushxabarni kutmay ham qo'rganmiz, og'ay. Xushxabar Qof tog'ining orqasida chog'i...

Yolchiqul. Yana shuni aytib qo'ymoqchi edim, Oqyigit. Agar, mabodo bu yaylovdan bosh olib chiqib ketish xayolingga kelib qolsa, mening ikki otim egarlog'lik!

Oqyigit. Qayoqqa ot solma, bu jafolar orqangdan yetib boradi.

Yolchiqul. Kishi nima bo'lishini bilishi qiyin, qarindosh!

Oqyigit (keskin o'rmidan turib). Toqatim toq bo'ldi! Oyim oldiga boraman. Yig'sin oqsoqollarini, bu ish bir yoqlik bo'lishi kerak, albatta bir yoqlik bo'lishi kerak! Tushunishlari lozim! Oqsoqollar ham odam qabilasidanmi, axir! (Chopib chiqib ketadi.)

Jimlik. Yana o'sha mungli kuy eshitiladi.

Shafaq. Nega, nega sen o'shanda meni girdobdan tortib olding, Yolchiqul og'ay! Bu dunyoning olovida yonmay, muzdek qabr quchog'ida tinchgina yotgan bo'lar edim...

Yolchiqul. Quyoshning butunlay so'nganidan, bulut orqasidan bo'lsa ham, sochib turgani yaxshi, Shafaq!

Shafaq. Sening so'zlarini ham tuman bosdi chog'i, og'ay, hech narsa tushunmadim.

Yolchiqul. Bu dunyoda tanho, yoppa-yolg'izman, mening ko'nglimni ovlaydigan faqat Oqyigitu sen bor. Bulut orqasidagi mening quyoshim shu siz, ikkingiz!

Shafaq. Dardu alam nomli qora bulut ostidamiz, Yolchiqul og'ay.

Yolchiqul. Sen menga xuddi o'z singlimdaysan, Shafaq. G'amingni yengillatish uchun o'tga ham, suvga ham kirishga tayyorman.

Nazarimda, seni girdobdan tortib olganimda sen bilan birga o'z baxtimni qutqarib qolgandaysan, o'zing quvonchdan mahrum bo'lsang ham men g'aribning kechalarini yoritgan quvonch chirog'isan!

Shafaq. Odamlar bir-biriga azob berish uchun tug'ilganlarmi, deb o'ylaysan kishi. Lekin men bilaman, agar ularning o'z erklari o'zlarida bo'lsa, faqat bir-birlariga quvonch bag'ishlar edilar.

Yolchiqul. Aybga buyurma, Shafaq, sening uchun jonimni berishga tayyor ekanligimdan ogoh qilib qo'yay, deb aytdim.

Shafaq Qulluq, Yolchiqul og'ay!

Yolchiqul. Xush qol, Shafaq, xudo senga sabr-qanoat bersin. (Ketadi.)

Shafaq. Ey dunyo! bevafo... Men bechora Yolchiqulni aytaman. Sahrodagi yakka daraxtga o'xshaydi. Na butog'ida qush uyasi, na soyasida ko'kat maysasi bor. Mevasiz daraxt, so'qqabosh!.. Nima, mening g'ussali taqdirim unikidan yaxshiroqmi? Mening nimam bor! Bir erim bor, u ham birovniki! Ersiz ham tul edim, erli ham tulman. Uch oydan beri ilhaqman. Yo'q, yostig'imga boshini ham qo'ygani yo'q! Nima, ilhaqlikka haddim yo'qmi? Axir u mening halol erim-ku, chiroyda Yusufdan afzal erim-ku, axir!..

Darvesh kiradi.

Darvesh. Assalomu alaykum, xo'jang uydami?

Shafaq (o'zini chetga olib). Yo'q, u uyda emas!.. Xayr, yo'lingdan qolma, darvesh!

Darvesh. Mening unda ishim yo'q, hamma ishim sen bilan bitadi.

Shafaq. Behuda gap! Bu uyning xo'jasi bor. Lekin u hozir uyda emas, ket, qaytganda kelasan.

Darvesh. Bu urug'da xo'ja yo'q!

Shafaq. Nega bo'lmasin, bu uyning xo'jasi erim, urug'ning xo'jasi qaynanam!

Darvesh. Qaynana, qaynana! Qaynanangni qo'y! Men sening oldingga keldim, senga yaxshilik qilaman deb keldim.

Shafaq. Menga hech kim, hech narsa kerak emas... Jo'na bu yerdan! Mening kamchilik joyim yo'q, baxti to'kisman.

Darvesh (kuladi). Baxti bekam emish? Hayotingiz halokat ostida, boshlaringga balo yopirilib kelyapti, urug'ingga qirg'in kelyapti! Fatarat topyapti!

Shafaq. Bekordan-bekorga urug' fatarat topmaydi. Aljirama!

Darvesh. Sen o'zingni laqmalnkka solma, hamma narsani bilasan, urug' senlarning kasringga qolyapti! Ering taomil va nikohga xilof ish tutib, buzuqlik yo'lga kirib ketdi. Tunlarni boshqaning quchog'ida o'tkazadi. Senga bir yo'l bor: xaloyiqning oldiga chiqib, yostig'ingga bosh qo'ymagan eringdan kech. "Men gukohorning gunohiga sherik bo'lmayman, men erimdan kechaman!" de!

Shafaq. Hamma so'zing tuhmat, Oqyigit menga sodiq!

Darvesh. Kechalari Eshmirza bola shirin uyquga ketganda, Zubarjadning qaynoq og'ushiga kim kiradi? Balki men kirarman, balki Devona kirar? (Kuladi.)

Shafaq. Men ayg'oqchi emasman. Mening erim - mening to'shagimda. Boshqasini bilmayman.

Darvesh. Senda na xotin yuragi, na ayol g'ururi bor, butun el bilganini sen bilmaysan.

Shafaq. Mening el bilan ishim yo'q. Menning jannatim ham, do'zaxim ham shu o'tov. Sen bu o'tozdan nari yur, darvesh, alangasida kuyib o'lasan.

Darvesh (o'zicha). Odam suyagidan ko'prik solsam ham maqsadimga erishmay qo'ymayman. (Shafaqqa.) Men tangrining amru irodasini aytyapman, Shafaq, gunohga botma, Oqyigitdan kech! Birovning gunohini xas-po'shlashdan og'ir gunoh yo'q bu foniy dunyoda! Qani, ayt-chi, sadoqatli ering hozir qayerda?

Shafaq. Ko'ngli qayoqqa boshlagan bo'lsa, oyog'i o'sha yerda! Sen jo'na bu yerdan, bo'lmasa, shovqin solib odamlarni boshingga yig'aman.

Darvesh. Men odamlardan qo'rqmayman. Men hech nimadan qo'rqmayman. Chunki men avliyoman! Avliyo hatto o'limdan ham qo'rqmaydi. Unga na o'lim, na jazo bor! Men kuchli odamman, qo'limni qayoqqa uzatsam yetadi. Istasam oyni so'ndiramanu, yer yuziga qabr zulmatini cho'ktiraman. (Qo'ynidan kitob olib, uzoq qaraydi. So'ngra o'zicha.) Ha, bugun... oy tutiladi... Bugunoq oyni tutiltira olaman... Shoshilish kerak... Shoshilish kerak...

Shafaq. Shoshil, shoshil, darvesh... Shoshilinch jo'nab qol bu yerdan!

Darvesh. Men senga shoshilaman, Shafaq, yolg'iz senga shoshilaman! (Shafaqqa intiladi.)

Shafaq. Voy-dod!..

Devona kiradi.

Devona. Shafaq, Shafaq, o'tov yonida hali bir qop-qora ilon izg'ib yurgan edi. Tag'in o'rmalab bu yerga kirmasin, ehtiyot bo'li! (Darveshni ko'rib.) Ilon bir yumalab darvesh bo'lib qolgan bo'lsa-ya?

Darvesh. Nima deb aljirayapsan, manglayiga shayton muhr bosgan maxluq! Mana bu tayoq bilan boshingga solaymi?

Devona. Meni urib bo'lmaydi, darvesh, gunoh bo'ladi... Menga qara, nega sen tun bo'yi o'tovlar orasida o'rmalab yurasan? Sen ilondan tarqagansan. Menga farishtalar aytdi.

Darvesh. Kuf-suf desam toshga aylanasan-qolasan. Keyin onangning go'ri ustiga qabr toshi qilib qo'yishadi... Har nima, qabrga asqotgan bo'larding!

Devona (ma'yus). Mening onam yo'q. (G'azab bilan.) Tosh bo'lsam seni bosib-yanchib o'ldirar edim, sen odam emas, qora ilonsan-ku! Ta-ta-ta-ta. Qara, duming ilonga o'xshab jilpanglaydi. Ko'lahlik boshing ham, naq ilonning boshi.

Darvesh. La'nat bo'lsin senga! Hozir sen maxluqni itga aylantiramanu, tovonimni yalataman.

Devona. Yo'q, yo'q! Men tovoningni yalamayman, o'zingni chaynayman. Mana bunday, mana bunday qilib chaynab kemiraman. Vov...vov...vov... (It bo'lib vovillab Darveshni kuvib chiqaradi.)

Shafaq. Uf, qutim uchib ketdi-ya, Devona. Yaxshi ham sen kirib qolding.

Devona. Qo'rqma, Shafaq. Shunchaki yolg'ondan it bo'lib vovilladim. Qorovul itiga o'xshab vovillab haydadim.

Shafaq. U odam qiyofasiga kirgan it, sen bo'lsang, yolg'ondan it bo'lib akillagan inson!..

Devona. Shafaq!

Shafaq. Nima, Devona?

Devona. Men sira uylanmayman.

Shafaq. Nega, Devona?

Devona. Oqyigit bilan Eshmirza uylanmaslaridan burun qanday yaxshi odamlar edi-ya, hech qachon yig'laganini ko'rgan emasman. Hozir bechoralarga juda qiyin. U o'tovda Zubarjad yig'laydi, bu o'tovda sen yig'laysan. Boyvuchcha ham mening boshimni silab o'tirib, menga bildirmay yig'laydi... Faqat Eshmirza yig'lamaydi, xolos. Kuni bo'yi yog'ochdan ot qilib chopib charchaydi-da, kechalari uxlaydi. Yig'lamanglar, yig'lamanglar, Shafaq! (O'zi o'krab yig'lab yuboradi.)

Shafaq. Yo xudoyim! Devonaning yuragi bir baloni sezayotganga o'xshaydi.

Devona. Hozir ko'kda farishtalar ham ko'rinmay qoldi... Ko'k yuzi qop-qora.

Shafaq. Qo'y, xafa bo'lma, Devona, ochilib ketar.

Devona. Ochilmaydi, Shafaq, farishtalar uzoq yoqlarga uchib ketishgan...

Shafaq. Bor endi, Devona, o'rningga borib yot, tashqariga qorong'i tushdi.

Devona. Bahorgacha uyg'onmasdan uxlasang... qishning sovug'i jondan o'tib ketyapti...

Zubarjad kiradi. Shafaq sarosimada. Uzoq jimlik.

Zubarjad. Bevaqt kelganim uchun kechir, Shafaq! Yolg'iz o'zim juda qo'rqaman, kuni bo'yi o'ynab charchagan erim dong qotib uxlab qoldi.

Shafaq. Kel, uyim to'ri seniki, ovsin, yuqoriga o't!

Devona. Ikki kelin, kelindosh, biri yalqov, biri yosh... Ikki kelin, kelindosh, bir-biriga...

Zubarjad (so'zini bo'lib). Bor, Devona bizning o'tovga borib, Eshmirza yoniga kirib yot, uyg'onib ketsa, bir o'zi qorong'ida qo'rqib yig'lab beradi.

Devona. Ikki kelin, kelindosh, bir-biriga kundosh... (Ketadi.)

Zubarjad. Men sening oyog'ingga bosh urib keldim, Shafaq. Shuncha vaqt ko'zingga ko'rinishga jur'at qilmay yashirikib yurdim.

Endi bo'lmadi, toqatim, qolmadi, nima qilsang - qil meni! Ixtiyor senda, Shafaq!

Shafaq. Sening izming menda emas, Zubarjad!

Zubarjad. Yo'q - senda... Oqyigitning halol xotini - sen!

Shafaq. Qo'y, yaramga tuz sepma!

Zubarjad. Kechir, Shafaq, hech choram yo'q. Boshimga la'natlar do'lini yog'dir, yuzlarimni qamchilar bilan tilib tashla, sharmandayu sharmisor qilib, ostonangdan haydab chiqar, lekin choram yo'q, Shafaq! Men Oqyigitni ko'rmasam telbaman, jinniman! Men uch kecha ko'rmadim uni, Shafaq, uch kecha!..

Shafaq. U meni uch oydan beri ko'rmaydi. Ko'zi ko'rsa ham ko'ngli tusamaydi. Mening ahvolim - tirik murdaning holidan og'ir.

Jonli, tirik Shafaqning qismati - murda qismati.

Zubarjad. Hammamiz ham sharialarga o'xshaymiz... Jonsiz sharialarga. Jonimizni tanimizdan sug'urib olganlar. Biz hayot kechirayotganimiz yo'q, Shafaq, qimirlab yuribmiz, xolos...

Shafaq. Qimirlashga ham majol tugab boryapti...

Zubarjad (Shafaq oyog'iga tiz cho'kadi). Oyog'ingga bosh urib, izlaringni o'pib yolvoraman, Shafaq, Oqyigitimni menga qaytarib ber! Usiz bir kun ham yashashga majolim yo'q. Mening oldimda fakat ikki yo'l bor: yo Oqyigit yoki o'lim! Yo'q, yo'q, Shafaq, mening o'lgim kelmaydi, yashashni istayman. Oqyigitni menga ber. Jonim Shafaq, menga ber!..

Shafaq. Tur o'rningdan, Zubarjad, o'zingni xo'rlama. Agar men sen singari sevimli bo'lsam, barcha dardu azoblar tutundan ham yengil tuyulib, boshim osmonga yetar edi. Shu baxt qanotlarida pag'a bulutlar ustida narvoz qilib, baxtiyorligimni dunyoga jar solib yashar edim. Hech narsani, hech kimni o'ylamas zdim. Sevimli bo'lmoq - tirik jonli bo'lmoq, demak - Zubarjad!

Zubarjad (turmaydi). Faqat sen la'natlamasang bas, Shafaq. Men boshqa hech kimning qarg'ishidan qo'rqmayman, mening taqdirim sening hukmingda! Rizolik ber, Shafaq. Oqyigit meniki ekanligini tan olib, menga rizolik ber! Men Oqyigitim bilan

qovushay! Rizolik ber, Shafaq, oh Shafaq!

Shafaq (Zubarjadning qo'ltig'idan ushlab turg'azadi). Sizni bir-biringizdan ayirganlarida birov sizning rizoligingizni so'rganmide? Yo'q, hech kim so'ragani yo'q! Nega endi sevganing bilan qovushish uchun tiz cho'kib, iz o'pib rizolik so'raysan? Meniki bo'lmagan kishiga men xo'jayin emasman, Zubarjad!

Zubarjad. Oh, naqadar olijanob, saxovatli, Shafaq. (Shafaqni quchoqlamoqchi bo'ladi.)

Shafaq. Menga yaqinlashma, men o'lim quchog'idan chiqqan odamman, seni hayot og'ushi mushtoqlik bilan kutadi.

Zubarjad. Muruvvat uchun qulluq, Shafaq!

Shafaq. Muruvvatli bo'lmay nima ilojim bor? Men ham o'z erimni birovga o'z ko'lim bilan berib qo'yarmidim? Tish-tirnog'im bilan unga yopishib olmasmidim. O'lsam ham birovga bermasdim... Mening erim yo'q! Yo'q mening erim! U sening qaylig'ing, o'ynashing, ering - kim bo'lsa ham seniki Oqyigit! Hozirgi holimizda baribir sen - ersiz, men esa hamon - tul! Ikkimiz ham o'z yo'limizga baxti qoralarmiz.

Oqyigit kiradi. Zubarjad bilan bir-birlariga intilganlaricha qotib koladilar, Shafaq jimgina chiqib ketadi.

Zubarjad. Oh, Oqyigit!

Oqyigit. Zubarjad! Zubarjadim!

Zubarjad. Sog'inib, yuraklarim uzilib ketdi, Oqyigit. Chiday olmadim, o'zim keldim.

Oqyigit. Zubarjadginam, qafasdagi oq kaptarim!

Zubarjad. Sog'inib yuraklarim uzilib ketdi, shunqorim!

Oqyigit. Bitmas qaygum, bitmas shodligim mening, Zubarjadginam.

Zubarjad. Sen yonimda bo'lsang, tunlarim ham kunduzday nurga to'lib ketadi, Oqyigit. Hatto devdan ham qo'rqmayman. Sen bo'lmasang, atrofimni zulmat qoplaganday simsiyoh.

Oqyigit. Dev deganingga, u kuni xuddi devdan qochganday, mendan qochib yurganing esimga tushdi, xotiringdami?

Zubarjad. Voy, voy... o'sha dev yana kelib qolibdi-ku... qo'rqaman... (orqaga tisariladi.)

Oqyigit (otilib kelib quchoqlab oladi). Men yana mana bunday qilib seni devdan tortib olaman. Hech qanday qaroqchiga bermayman!

Zubarjad. Hali kechagina bu gaplarning hammasi hazil edi! Qayda qoldi betashvish yoshligimiz?

Oqyigit. Yoshligimiz o'zimiz bilan, hech kim ayira olmaydi bizni!

Zubarjad. Ayirdilar-ku!

Oqyigit. Mana yana birgamiz-ku, Zubarjad. Endi hech kim ayirolmaydi bizni. Onamning oldiga kirib, bundan keyin usiz bir kun ham yashay olmayman, dedim. Ikkimiz bir o'tovda yashaymiz, dedim.

Zubarjad. Chiningmi Oqyigit? Er-xotinlarday bexavf, beqo'rquv? O, baxt, naqadar Oqyigitimday yorqinsak!.. Ha, oying nima dedi?

Oqyigit. O'ylanib o'tirib, chuqur xo'rsindi-yu, hech nima demadi.

Zubarjad. Kel, Oqyigit, uzoq-uzoqlarga ketaylik bu yerdan!

Oqyigit. O'z yeringdan topmagan baxtni qayerdan topasan, Zubarjad? Hamma yoq bo'ri uvillagan cho'li!

Zubarjad. Ikkimiz bir yerda bo'lsak har qanday qiyinchilikni yengish mumkin. Odamlar bordir-ku, odam odamga rahm qilmaydimi? Otamni qonxo'r Qoraxo'janing jallodlari o'ldirmasa, biz shu kunga qolarmidik?

Oqyigit. Aytish qiyin, Zubarjad!

Zubarjad. Qochaylik bu yerdan tezroq... Boshimizga judolik boltasi tushmasidan qochaylik!

Oqyigit. Hech qayerga ketmaymiz, Zubarjad, shu yerda yashaymiz. Butun urug'ning ko'z oldida ikkalimiz bir yerda yashaymiz!

Shunday dedim onamga!

Zubarjad. Nima dedi qaynanam? Hech narsa demadimi?

Oqyigit. Hech narsa demadi... Oldiga oqsoqollar kelib qoldi, chaqirgan bo'lsa kerak.

Zubarjad. Balki oqsoqollar haqqoniy hukm chiqarib, bizni qovushtirib qo'yishar?

Oqyigit. Qovushtirmaydilar. Ularda jon yo'q, inson yuragi yo'q, Zubarjad!

Zubarjad. Axir o'shalar ham qachonlardir yosh bo'lgan-ku!

Oqyigit. Yoshliklarini yuz yil avval unutib yuborishgan, Zubarjad! Ulardan yaxshilik kutma! O'z yo'limizni o'zimiz topishimiz kerak! Biz o'zimizga o'zimiz hokim!

Tashqarida g'ovur-g'uvur eshitaladn.

Zubarjad. Bu nima shovqin, nima to'polon, Oqyigit? Yana qanday tahluka, yo xudoyim!

Oqyigit. Qo'rqma, Zubarjad, mollarni haydashayotgan bo'lsa kerak.

Zubarjad. Unaqaga o'xshamaydi, g'alayon vaqtidagi shovqin bu! Dahshatdan muzlab ketyapman, Oqyigit. (Oqyigit pinjiga kiradi.)

Oqyigit. Qo'rqma, jonim, yoningda men bor, qo'rqma!

Shovqin-suron bilan o'tovga Darvesh, uch oqsoqol, Tangabeka va yana ikki-uch kishi kiradi.

Darvesh. Elning nomus-ori bo'lgan oqsoqollar, o'z ko'zingiz bilan ko'ring! Uyatni bilmagan orsizlar yana birga. Bular buzuqligining chegarasi yo'q!

Ikkinchi oqsoqol. Uyat, uyat-e, butun urug'ning nomusini yerga bukdilaring! Sizlardan xudo yuzini teskari qilsin.

Uchinchi oqsoqol. Urug'imiz tarixida ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan sharmandalik bu!

Bir kishi. Xarob bo'ldik, eldan qut-baraka ketdi.

Darvesh. Harom-xarish b"urug' tomirni kesadigan bolta, deydilar. Necha oydan beri o'sha bolta qirqyapti tomingizni! Ikki buzuq butun urug' boshiga halokat keltiryapti, qirg'in bosib kelyapti.

Birinchi oqsoqol. Daryo-yu jilg'alarda suv quriyapti.

Ikkinchi oqsoqol. Biya va sigirlarning yelinida sut quriyapti.

Uchinchi oqsoqol. Yoz bo'yi tomchi yomg'ir ko'rmadik, dalalarda yaproqlar sarg'ayib, o'tlar qurib ketdi.

Ikkinchi oqsoqol. Ustimizga ofat yopirilib kelyapti!..

Bir kishi. Odamlarni o'lat yutib, urug'ga qiron kelyapti!

Darvesh. Bu ham kam. Urug'ingizda bunaqa harom-xarishlar yashar ekan, quyosh kuyib, oy ham so'nadi.

Oqyigit. El otalari! Bizning taqdirimiz sizning qo'lingizda. Ammo shuni yodingizda tutingki, dalalarni bizning ko'z yoshlarimiz quritdi, yaproqlarni bizning hasratlarimiz sarg'aytirdi. Bizni bu kunga solgan kim? Siz emasmi? Bizni shuncha azob-uqubatga

solganingiz uchun xudo sizning boshingizga ofat yog'diryapti!

Birinchi oqsoqol. Tavba deb gapir, Oqyigit! Seni shayton yo'ldan ozdiribdi. Butun qonun-taomilimizni oyoq osti qilding, imonsiz, tavba qil!

Ikkinchi oqsoqol. Tavba qildim, de!

Oqyigit. Sizlar tavba qilinglar, ulug'lar! Xato qaroringizdan voz keching. Men otam vasiyatiga sodiqman, siz uni buzingiz.

Vasiyatga xilof ish qilmoq - katta gunoh. Sizlar tavba keltiring.

Uchinchi oqsoqol. Bunday safsatalarni eshitishning o'zi katta gunoh, qariyalar!

Birinchi oqsoqol. Sen nega indamaysan, boyvuchcha! Sen o'z onalik so'zningni ayt!

Tangabeka jim.

Ikkinchi oqsoqol. O'zing tuqqan bola uchun o'zing javob ber, boyvuchcha!

Uchinchi oqsoqol. Risqulbek o'lib qutuldi bu sharmandalikdan. Bo'lmasa anavi oqpadari (Zubarjadni ko'rsatib) uchun hozir u ham izza bo'lib turar edi. Yaxshidan tug'ilgan yomon, deb shuni aytadilar.

Oqyigit. Zubarjadga til tekkizma, ulug'! Uning vijdoni pokiza. Sen men bilan so'zlashaver!

Ikkinchi oqsoqol. Pokiza emish? Unda vijdon nima qilsin? Ikkalangi bir go'r!

Birinchi oqsoqol. Ayt o'z so'zingni, boyvuchcha, o'g'ling gunohini yopib, o'zing gunohga botyapsan...

Tangabeka. Tog' bag'rida ko'z ochgan buloq suvi oqib tushgandan keyin - vodiyniki bo'ladi... O'g'lim endi voyaga yotgan, mendan ketib - elniki bo'lgan. (Ma'yus va tahlikada.) El nima qilsa, ixtiyori! So'zim shu!

Darvesh. Sen o'zingni quruqqa olib, elga solma, boyvuchcha, bolalaring uchun sen mas'ul. Uchalasi ustida o'z hukmingni chiqar.

Uchala o'g'il ham seniki-ku! (Tangabekaga makkorona jilmayib qaraydi.)

Ikkinchi oqsoqol. Uchalasi dedingmi?

Uchinchi oqsoqol. Uch o'g'il?

Darvesh. Ha, uch o'g'il!

Birinchi oqsoqol. Urushda o'lgan Yo'lmirza shahid ketgan. U boyvuchchaga shuhrat keltirdi, xolos.

Darvesh (o'ylab turgach, bir qarorga kelib). To'g'ri aytasizlar, qariyalar, yovda o'lgan - shahid!

Ikkinchi oqsoqol. Nimaga qarab o'tiribmiz, oqsoqollar! Gunohkorlar tezroq tavba qilsinlar. Bularning kasriga elni qora vabo bosib kelyapti. Tangabeka, aytadigan so'zingni ayt, qariyalar senga muntazir!

Birinchi oqsoqol. So'z senga, boyvuchcha!

Tangabeka (iztirobda.) Yakka otning changi chiqmas, deydilar. O'g'lim, qadimdan qolgan qonun va taomilga yakka o'zing bosh ko'tarib nima orttirding? Sen taomilga xiyonat qilding. Yo'ldan ozgan bandasiga tangrining qahri g'azabi cheksiz, bolam! Umr bo'yi tiriklayin do'zaxda kuydiradi. Buni bir gunoh qilib, ming jafo tortganlargina biladi, bolam. Ko'ngilning bir erki uchun aql umr bo'yi uni qiynaydi. Aql-hushingizni yig'ib, oqsoqollar oldida tavba qilinglar! Tavba qil, bolam!

Oqyigit. Men tavba so'zini bilmayman, onajon!

Tangabeka. Urug'ning ulug'lari oldida tavba qilib, bir-biringizdan kechinglar... Keyin men Zubarjad bilan Eshmirzani olis yaylovga ko'chirib yuboraman. Odam beraman, yetadigan mol beraman.

Oqyigit. Yo'q, ona, tavba fursati emas, biz bir jon, bir tan bo'lib qolganmiz endi.

Zubarjad. Oqsoqollar! Meni dunyoning narigi burchiga haydanglar, men emaklab bo'lsa ham Oqyigitga yetib kelaman. Bizni tug'ilish qovushtirdi, o'lingina judo qiladi.

Ikkinchi oqsoqol. Ana, ko'rdingizmi?! Ayol boshi bilan tilini tiymaydi-ya?

Uchinchi oqsoqol. Senga urug' mol to'laganmi - urug' molisan!

Zubarjad. Mol bilan teng ko'rsanglar, molday bo'g'izlab tashlanglar qo'yinglar. Molni ham qiynashmaydi-ku!

Bir kishi. Bo'g'izlash ham kam, osish kerak buni!

Oqyigit. Mol bilan tillashib o'rgangansiz, oqsoqollar, biz sizning suruvingizda, osasizmi, chopasizmi, ixtiyor sizda! Tanlarimiz sizniki, lekin ruhlarimiz-chi? Ruhlarimiz taomilning temir qafaslarini buzib chiqqan. Ular keng havoda, sizning fisqu fujur, urfu odatlaringizdan yuksakda erkin parvoz qiladi. Bu ikki hur qushga qancha o'q otmang, hammasi behuda!

Ikkinchi oqsoqol. Amr etinglar, ulamolalar! Bunday qabih so'zlar uchun burungi zamonda odamlarning tilini kesar edilar!

Betavfiqlar, bizdan qo'rqmasanglar, tangridan qo'rqinglar!

Oqyigit. Mening tangrim bitta. Bizni qovushtirgan bir o'sha tangri, boshqa tangrini men bilmayman. Imonim esa - muhabbatim!

Ikkinchi oqsoqol. Bandalar, eshityapsizlarmi? Bu odam emas, iblis, iblisdan tarqagan! Odam bolasidan chiqmaydi bunday so'zlar!

Bular hammaga qiron keltiradi, qiron!

Tangabeka. Oyog'ingga bosh urib o'tinaman, o'g'lim, ulug'larning yuziga oyoq tirama! Tavba qil, Oqyigit, qon-qarindoshlaringni qirondan saqla!

Oqyigit. Mening tavba qiladigan gunohim yo'q, ona! Qon-qarindoshlarni biz halok qilayotganimiz yo'q. Sizlar hammangiz o'zingizni o'zingiz halok qilyapsiz! Taomil, qonun degan o'lik jonlar tiriklarni kemiryapti.

Birinchi oqsoqol. Bittagina yo'l bor, oqsoqollar! Bu ikki imonsizni urug'dan quvish kerak!

Tovushlar. Quvish kerak, haydash kerak!

Ikkinchi oqsoqol. Ikkalasingiz qo'llarini bir arqonga bog'lab, cho'lga haydash kerak!

Tovushlar. Haydash kerak! Quvish!

Darvesh. To'rt tomonga chopar yuborilsin, ularni hech kim yaqiniga yo'latmasin, "Ular moxov, ular qaysi urug'ga borsalar, o'sha yerda vabo qo'padi, qiron keladi!" deb xabar qilinsin!

Tovushlar. Vabo keladi, qiron keladi!

Devona chopib kiradi.

Devona. Boyvuchcha opa, Tangabeka boyvuchcha opa, g'alati ish bo'ldi, osmonda qiziq ishlar bo'lyapti, o'ying bir bo'lagi chetidan uzildi-yu, tushdi-ketdi.

Ikkinchi oqsoqol. Ovozini o'chir, Devona, bo'lmagan gap!

Devona (eshikka chopib borib). Ishonmasang, ana o'zing chiqib qara, o'ying bir chekkasi kemtik. O'yingizni shayton kemirib ketdi!

Ikkinchi oqsoqol (eshikka borib). Aytganimiz keldi. Oxir zamon bo'lyapti. Ya'juj-ma'juj oyni kemirib ketdi. Anavi buzuqlarning kasri bu!

Darvesh. Bashoratimga shak keltirdinglarmi? Oysiz qolib, zulmatga botasizlar demabmidim?!
Birinchi oqsoqol. Yo tangrim, oy so'nib boryapti.
Dalada mollarning ma'rashi, itlarnim hurishi eshitaladi, o'tovda yig'i-sig'i.
Tovushlar. Oy so'nyapti!
Ikkinchi oqsoqol. Yer gunohga botgan, yer yuzida buzuqlik ko'p, buzuqlik!
Tovushlar. Buzuqlik ko'p... Hammasi o'shalarning kasofati. Halok bo'lyapmiz. Xudo, o'zingning rahming kelsin!
Darvesh. Oqsoqollar, takbir aytinglar, takbir aytinglar!..

Xaloyiq takbir o'qib chiqadi.
Ollohu akbar, ollohu akbar,
Lo iloha illollohu,
Vallohu akbar, ollohu akbar...

Darvesh bilan Tangabeka orqaroqda qoladi. Oqyigit bilan Zubarjad ikki chetda.
Oqyigit. Bizning oyimiz ham so'ndi. Hamma yoq sim-siyoh.
Zubarjad. Ko'zlarimiz ko'rmasa, tovushlarimizdan tanib topib olamiz bir-birimizni, Oqyigit. Nafasingni sezib turibman, Oqyigit.
Men zulmatdan qo'rqmayman.
Oqyigit. Hamma qo'rqadiganlar orqada qolib ketdi, Zubarjad!
Zubarjad. Ovozindan yorqin nur sochiladi, Oqyigit.
Oqyigit. Chunki sen umid kabi porlab turgan quyoshimsan, Zubarjad!
Sekin bir-birlariga yaqinlasha boradilar.
Darvesh. Kuning bitdi, boyvuchcha, boshingga qora kun tug'di. (Mensimay, buyruqomuz.) Aytib qo'y, Shafaqqa ko'z-quloq bo'lib turishsin. U - meniki. Hali sen bilan men ora ochiq bo'lganimiz yo'q. Ko'ryapsanmi, boyvuchcha, hamma narsa mening ko'nglimdagiday xotima topyapti. Shafaq meniki, eshityapsanmi?
Tangabeka. Sen ajdahosan! Ming yil yer tagida zaxlab yotgan qora ilonsan, devean!
Darvesh. O'rtamizda ta'naga o'rin yo'q, boyvuchcha!
Tangabeka. Oh, xudo, jonimni ol, menga o'lim ber! (Gandiraklab chiqib ketadi.)
Darvesh (kuladi). Endi o'zim ham shunga ishondimki, jahonda iblisdan ko'ra qudratli tangri yo'q!..
Qorong'ilik.
Zubarjad (eslab).

Men Zubarjad otlidirman,
Oqyigitning yoridirman,
Bir ko'rishga zoridirman,
Ko'rgan bormi, bizning yorni?

(O'ksib yig'lab yuboradi.)
Oqyigit. Zubarjadim, mening asl zumrad toshim! Baribir seni hech kim qora toshga aylantirmaydi. Shuning uchun istiqbolimdan minnatdorman, oq kaptarim!
Zubarjad (yig'i aralash). Men hali ham umid uzganim yo'q. Ajal albatta bizni chetlab o'tadi. Ajalning shafqati yo'qmi? Ajal odamlarga o'xshagan tosh bag'ir emasdir? (Oqyigitning pinjiga suqiladi).
Darvesh Shafaqni o'tovga itarib kiritadi.
Zubarjad. Kim bu?!
Shafaq. Men!
Zubarjad. Shafaq?!
Shafaq. Men hali ham tirikman...

Xotima

Oy to'la tutilgan tun. O'tov oldidagi maydon. Qayerdadir mash'al ko'targan odamlar shovqin-suroni eshitaladi. O'tov oldida qo'lida mash'al tutgan Yolchiquil. U soqchilik qilib turibdi.
Yolchiquil. Darvesh menga mana bu qabrni qo'riqlab turishni topshirib ketdi. Bu go'rdan birov qochib qutularmidi? Qayoqqa qochadi?.. Ey yoshlar-ey, yoshlik qilishdi-da... Hali yaqindagina quluntoylarday o'ynab yurgan bu bolalar shu kunga tushib qoladi, deb kim o'ylabdi deysiz? Hoy, Oqyigit, otlarni egarlab qo'ydim, mininglaru qochib qutulninglar bu jahannamdan, dedim, ko'nmadi! Odamlar bir-birlarini tiriklay go'rga tiqishadi, bir-birlarining terilarini shilishga tayyor... Mana bular (o'tovga ishora qilib) taqdirga bo'ysunishni istamaydilar! O'zlaricha kun ko'rishni istagan ekanlar, yashayversinlar! Birovga zararlari tegarmidi?.. Yo'q, odamlar beshafqat! Ularning yuraklari toshdan.
Devona kiradi.
Devona. Voy, Yolchiquilmi? Ha, Yolchiquil, otlarni menga tutqazib, o'zing g'oyib bo'lding-qo'yding? Men yuganlarini olib, otlarni dalaga haydab yubordim. Kerak bo'lsa tag'in tutib olarsan!
Yolchiquil. Shovqinlama, Devona, endi otlarning keragi yo'q.
Devona. Endi nima bo'ladi, Yolchiquil?
Yolchiquil. Juda yomon bo'ladi.
Devona. Bu yomonlardan ham yomonmi?
Yolchiquil. Yomondan ham yomon.
Devona. Yomondan ham yomon bo'lsa nima bo'ladi?

Yolchiqu. Oqyigit bilan Zubarjadning qo'llarini bog'lab cho'lga quvadilar, oqsoqollar boshlagan ishni och bo'rilar nihoyasiga yetkazadi.

Devona. Nima uchun bo'rilar bir-birlarini yemaydilar?

Yolchiqu. Yirtqich hayvonlar o'z jinslariga shafqat qilishadi. Lekin odamlarda shafqat yo'q, bir-birlarini yeyishadi.

Devona. Meni ham yeb qo'yishsa-ya?

Yolchiqu. Oh, Devona, seni allaqachon yeyishgan... Sening hatto ismingni ham yeyishgan...

Devona. Kim yegan meni?

Yolchiqu. Unisi menga qorong'i. Lekin seni yeyishgan.

Devona. Bo'lmagan gapni gapiryapsan... Mana oyoqlarim, qo'llarim butun, mana burnim, boshim bor... Boshimda do'ppim bor...

Yolchiqu. Sen bilan mening baxtimni yeyishgan, Devona.

Devona. Da... a... a...

Yolchiqu (qulok solib). O'tovdagilar jim bo'lib qolishdi... Faqat Shafaq o'ksib-o'ksib yig'layapti... Ey, dunyo-ey...

Devona. Ertaga quyosh chiqmasa nima qilamiz? Qanaqa qilib uyqudan uyg'onamiz, Yolchiqu?!

Yolchiqu. Quyosh chiqar, chiqaru ammo qora quyosh chiqar.

Devona. Boshqa quyosh chiqadimi endi?

Yolchiqu. Nega boshqa bo'lsin, o'sha quyoshning o'zi. Lekin hasratdan kuyib, unniqib chiqar.

Devona. Juda yomon bo'lar ekan bo'lmasam...

Mash'al tutgan odamlar yaqinlashadi.

Yolchiqu. Biz tomonga kelishyapti.

Devona. Men ulardan qo'rqaman, tag'in meni ham tutib yeb yuborishmasin?! (O'tovga kirib ketadi.)

Yolchiqu. Bunday tunda yaxshi odamlar molni cho'lga haydamaydi, bular odamni haydagani kelishyapti.

Erkaklar, xotinlar qo'llarida mash'allar bilan kirishadi.

Ikkinchi oqsoqol. Bu buzuqlar tuprog'imizni tark etmasa, boshimiz falokatdan chiqmaydi. (Qo'lida arqon.) Haydash kerak bularni!

Uchinchi oqsoqol. Fursatni boy bermay, tezroq quvish kerak!

Tovushlar. Quvish kerak, quvish kerak!

Birinchi oqsoqol. Boringlar, olib chiqinglar u yuzsizlarni!

Ikkinchi oqsoqol. Odamlar ko'rsin, bilib qo'ysin: buzuqning holi shu bo'ladi, ibrat olishsin!

Tovushlar. Ibrat, ibrat bo'lsin!

Birov. Shularning kasriga urug'imiz og'ir kunga qoldi.

Uchinchi oqsoqol. Ey, bandalar, bularning holini ko'ringu, yuz o'giring ulardan...

Bir kishi Oqyigit bilan Zubarjadni olib chiqadi.

Holdan toygan, og'ir iztirobda Tangabeka kiradi.

Birinchi oqsoqol. Siz urug'ning yuziga oyoq qo'ydingiz, urug' bundan buyon sizdan yuz o'giradi!

Ikkinchi oqsoqol. Ko'rdingizmi, shaytonning yo'lga kirganlarniig holi shu bo'ladi!

Darvesh. Qilmish - qidirmish!

Ikkinchi oqsoqol. (Yolchiquga arqonni uzatib.) Ma, Yolchiqu, bu arqon bilan ikkalasining qo'lini bog'la, qovushishni orzu qilar edilar, qovushsinlar!

Yolchiqu. Qulluq, oqsoqol, men bu buyrug'ingni bajarolmayman.

Ikkinchi oqsoqol. Bu murtad qaydan chiqdi?! (Bir kishiga.) Ko'charboy, ma, chaqqon-chaqqon bog'la!

Ko'charboy. Men ot tushovlaganmanu, oqsoqol, odam tushovlagan zmasman. Mening qo'lim bormaydi, o'zing bog'layver!

Ikkinchi oqsoqol. Nima balo bo'lgan bularga, biri biridan tanbal?

Birinchi oqsoqol. O'zing boshlaganni, o'zing boshqar, qurdosh!

Ikkinchi oqsoqol. Urug'imiz osoyishtaligi uchun jonimni fido qilishga tayyorman! (Oqyigit bilan Zubarjadning qo'llarini orqaga qilib bog'laydi.) Mana, bunday bo'ladi... Men qonun yo'lida o'z farzandimni ham ayammas edim.

Bir xotin. Bechoralarni bunday qiynagandan ko'ra jonidan judo qilib qo'ya qolinglar!

Tovushlar. Bog'lab nima qilasizlar, qo'yvoringlar, shunday ketaversinlar!

Ikkinchi oqsoqol. Shovqin solmanglar! Bu nimasi?!

Tangabeka. Oqsoqollar! Sabr qilinglar, shoshmanglar, mening so'zimga quloq beringlar! Bir xotin. Onaga yo'l beringlar!

Odamlar chstlanib Tangabekaga yo'l beradilar.

Tangabeka. Men ona, onaman, xaloyiq. Sizning oldingizda ham, xudo oldida ham, u dunyoda ham, bu dunyoda ham men javob beraman. Bolalarni qo'yinglar, oqsoqollar, mening ustimdan hukm chiqaring. Men gunohkorman, xaloyiq, juda gunohkorman.

Meni la'natlang, qarg'ang men gunohkorni! Lekin bolalarni qo'ying, tegmang ularga, oqsoqollar!

Darvesh. Yo'q, boyvuchcha, ular sening qo'lingdan ketgan. Sen hali o'z gunohing uchun javob beradigan vaqting keladi.

Tangabeka. Uning so'zlariga quloq solmang, bizning tinchimizni buzgan yovuz - shu!

Darvesh. Sen bir oz o'ylab gapirsang durust bo'lar edi, boyvuchcha!

Tangabeka. Hozir men sendan zarracha ham qo'rqmayman! Elatlar! Bu do'zaxi odam, bu mudhish zot. Bu avliyo emas, xudodan qaytgan yovuz!

Darvesh. Bu boyvuchcha aqldan ozdi chog'i?!

Tangabeka. Ha, aqldan ozdim, ozmay ko'r-chi aqldan bu qiyomat qoyimda! (Oqyigitga.) O'g'lim, kechir meni... Tavba qil, taomilga bo'ysun, o'g'ilginam! (Oqyigit jim.) Axir toshbag'ir emassan-ku, bolam?!

Yolchiqu. O'zing toshga aylantirding, boyvuchcha!

Tangabeka (Zubarjadga). Hech bo'lmasa sen tavba qil, Zubarjad. Sen ayolsan-ku, ayol kishiga toshko'ngillik yarashmaydi!

Zubarjad jim.

Birinchi oqsoqol. Kechikding, boyvuchcha, kechikding! Hukmimiz qat'iy, uni Ollo taoloning o'zi qabul etdi. Endi o'zgartirib bo'lmaydi.

Yana o'sha to'y libosida Shafaq o'tovdan chiqadi, bir chekkada mag'rur jim turadi. Odamlar hayron va hayratda unga qaraydilar.

Bir xotin. Astag'firullo! Bu nimasi?

Tangabeka. Shafaq? Bugun tuy libosi kiyadigan kun emas-ku, bolam? Jin-pin urmadimi? Ering ajal izlab ketyapti-yu, sen to'y

This is not registered version of TotalDocConverter

libosha.com

Shafaq jim.

Ikkinchi oqsoqol. Ha, xudo yo'liga, qon-qardoshlar! Qani, fursat o'tmasin, vidolash bolang bilan, boyvuchcha!

Tangabeka. Xayr, o'g'lim, alvido, Oqyigitim! Oq ismingga qora kunlar yo'ldosh bo'lishi yozilgan ekan peshonangga, bolam!

Juvonmarg bo'lgan yoshliging uchun, sen ko'rmagan shodliklaring uchun uzr so'rayman sendan, bolaginam! Kechir, men yoziq onangni!.. Adalotsizlik, qanday og'ir adolatsizlik bu!.. Bir narsa de, bolam, oxirgi marta ovozingni eshitib qolay, birgina so'z ayt bu gunohkor onangga, oq shunqorinam!...

Oqyigit. Quloq eshitmagan ayblar eshutilib, aytiladigan so'zlar aytilib bo'ldi, ona! Senga emas, men tug'ilib o'sgan aziz dargohga, ona tuproqqa aytadigan so'zim bor:

Alvido, tuprog'im, suvlar, tog'larim,

Alvido, dilimning issiq dargohi.

Baxtiyor yoshligim, xushnud chog'larim,

Hurligim, ishqimning so'nggi panohi!

Qalbim jarohati og'ir, dard og'ir,

O'limday qop-qora yo'lga chiqaman.

Senda kunim bitmish, Ona yurt, axir,

Qul emas, hurlikcha, ishq-la ketaman!..

Alvido, Yolchiqul og'ay, alvido,

Devona... Alvido,

Shafaq, mening bechora xotinim!

Men gunohkor bo'lsam, faqat sening oldingdagina gunohkorman, Shafaq! Sen oqilasam, kechir meni, qarg'ama, Shafaq!

Shafaq bosh egadi. Oqyigit, Zubarjad ikkalasi odamlarga ta'zim qilib, qorong'ilik tomon keta boshlaydilar. Tangabeka qotib qolganday.

Ikkinchi oqsoqol. O, xudoyim, nihoyat bu gunohkorlardan bizni xalos qilding!

Uchinchi oqsoqol (qo'l siltab). Hamma balo, hamma vabo ular bilan daf bo'lsin!

Birov. Ana, eshityapsizmi, rizqini sezib, och bo'rilar uvillayapti.

Bir xotin. Voy xudoyim-ey, hech qaysingizda shafqat yo'q! Bo'ridan ham battarsizlar!..

Shafaq keskin burilib ikkinchi tomonga yo'l oladi. Darvesh uning yo'lini to'smoqchi bo'ladi. Yolchiqul Darveshni chetga itarib, o'zi Shafaq orqasidan ketadi.

Ikkinchi oqsoqol. Hammasi yo'ldan ozgan, hammasi ham iblis qullari, buzuqlik qullari! Yo'qolsin hammasi, daf bo'lsin!

Qarorgohimizga osoyishtalik dorisin!

Uchinchi oqsoqol. Osoyishtalik bo'ladi, xudo xohlasa! Bu buzuqlik qullariga o'lim!

Devona (kutilmaganda o'rtaga chiqadi). Qullar! Qani qullar! Kim qul?

Uchinchi oqsoqol (ketganlarki ko'rsatib). Ana, qullar, ana!

Devona (xaxolab kuladi). Men hech qanday qul ko'rmayapman. (Ketuvchilar iziga tikilib.) Qullar, qullar deysan! U yerda men

qullarni emas, to'rtta farishtani ko'rib turibman, to'rtovining boshida to'rt oltin toj yarqirab turibdi, ular hur-ku! Qullar qayerda?

(Qattiq kuladi.) Mana bu yerda qullar! (Birinchi oqsoqolga.) Ana, sening peshonangda qullikning muhri qop-qora bo'lib yonib

turibdi, qop-qora bo'lib turibdi!.. (Ikkinchi oqsoqolga.) Sening esa, ichingda shumshayib g'arib qul o'tiribdi, ana bukur qul

o'tiribdi. Uning yelka-yag'rinlaridagi qamchi izlarini men ko'rib turibman... (Uchinchi oqsoqolga.) Qullik sening qorningda. Xuddi

chuvalchangga o'xshab xushomadgo'ylik, laganbardorlik quli yotibdi. Sen ayanch, qo'rqqoqlik qulisan!.. (Darveshga.) Qani, menga

qara-chi, sen avliyoning qora yuragida nima bor ekan?! Sening ichingda qul yo'q! Ana, tomosha qilinglar, bu avliyoning ichida

buralib-buralib ilon to'lg'anyapti. Ilonning ikki tili va ikkita dumi bor... Avliyo qiyofasidagi ikki-yuzlamachilik quli bu!

(Tangabeka oldiga kelib to'xtaydi.) A, Tangabeka boyvuchcha! Menga qara, iye, bo'yningdagi nima? Marjonmi? Bu kumush

marjon emas, kumush arqon! Qullik sirtmog'i. O'z sirtmog'ing o'zingni bo'g'yapti... bo'g'yapti, ana bo'g'yapti! Qizil ko'zli burgut

sen emasmisan? Nega sen o'z bolalarkngni chohga itarib yubording, Tangabeka?! Endi ular orqasidan o'zing ham chohga tashlan,

boyvuchcha! Ana, u chohning qa'rida sen o'ldirganlarning suyaklari oqarib ko'rinib turibdi, ana, qara, oqarib turibdi! Men borib

ularni ko'may, axir o'lganlarni ko'mishadi-ku. O'tovda tug'ilganmi, qoyaning cho'qqisida tug'ilganmi, o'lgandan keyin baribir

tuproqqa ko'mishadi...

(Ketadi.)

Tangabeka turgan joyida yiqiladi. Uzoqda, ketganlar tomonda yorqin nurli katta yo'l ko'rinadi. Ketuvchilarning o'sha nurli yo'lga

chiqqani ko'rinadi...

Parda.